

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGITOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**«NEFT KONLARINI ISHLASH VA
ISHLATISH»**

fanidan 5311900 “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mustaqil ish bo‘yicha

Uslubiy qo‘llanma

Toshkent 2014

Tuzuvchilar: Akramov B.Sh., Urinov S.N., Umedov Sh.X., Adizov B.Z.

«Neft konlarini ishlash va ishlatish» fanidan 5311900 “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mustaqil ish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.-T: ToshDTU, 2014. 53 bet.

Quyidagi uslubiy ko‘rsatmalar 5311900 “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning “Neft konlarini ishlash va ishlatish” fanini mustaqil o‘rganishiga mo‘ljallangan. Bu fan VII semestrda o‘tiladi.

O‘rganiladigan fan quyidagi asosiy bo‘limlardan iborat: qatlam energiyasining manbai va neft konlarining ishlash rejimlari; neft konlarini ishlash texnologiyasi; loyihalash uchun kerakli ma’lumotlarni tayyorlash; neft konlarini ishlash loyihasini tuzishning gidrodinamik asoslari; neft-gaz konlarini ishlashning asosiy qoidalari; qatlamning neft berish qobiliyatini oshirish usullari; jarayonni nazorat etish va boshqarish; neft qatlamini ochish va quduqni o‘zlashtirish. Quduq ostki qismiga ta’sir etish xususiyatlari; gaz-suyuqlik aralashmasi harakatining nazariy asoslari; quduqlarning ishlash usullari; yer osti va kapital ta’mir; neftni olish va uni tayyorlash.

Har bo‘limning oxirida talaba o‘zini tekshirishi uchun ishlatiladigan tekshiruvchi savollar keltirilgan.

O‘rganiladigan fan bo‘yicha tegishli adabiyotlar ro‘yxati ham tavsiya etilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy uslubiy kengashining qaroriga muvofiq chop etildi.

Taqrizchilar:

Sh. Mirsaatova – UNPP “Burg‘uchi-biznes” kata ilmiy xodimi,

U.D Nurmatov – (ToshDTU Neft va gaz fakulteti dekani mouvini), dots.

Kirish

Tavsiya etilayotgan uslubiy ko'rsatmalar talabalarning mustaqil ta'lim olishiga mo'ljallangan.

O'rganiladigan fan dasturga muvofiq alohida mavzularga bo'lingan. Talaba mavzuni o'rganishni shu mavzuning dasturga muvofiq mazmuni bilan tanishib, ma'ruzalar materiali, amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganadi. Bu ishni bajarishda albatta tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanish kerak. Har bir mavzuning asosiy qismini ajrata bilish kerak va har bir jarayonning masalan neft va gazni qazib olish texnologiyasining asosiy fizikaviy asoslari, har bir asbob va moslamaning tuzilishi, ishlash xususiyatlari va h.k., asosiy mohiyatni mustaqil aniqlash kerak.

Kirish qismida talaba quyidagi masalalarga ahamiyat berishi kerak: fanning asosiy mazmuni va uning mutaxassislik bo'yicha boshqa fanlar bilan bog'liqligi; neft va gaz sanoati rivojlanishining qisqacha mazmuni; dunyo bo'yicha neft va gaz sanoatnning hozirgi holati; bu sanoatni rivojlantirish yuzasidan; hukumatimizning asosiy qarorlari.

Asosiy qismda esa talaba mustaqil o'rganish uchun tanlangan mavzuni iloji boricha chuqurroq yoritishga harakat qilishi kerak. Mazkur uslubiy qo'llanmadan talaba neft konlarini ishlash texnologiyalari va konni ishlash loyihasini tuzish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlash, neft konlarini ishlash loyihasini tuzishning gidrodinamik asoslari, gaz do'ppisi va chekka suvlar bosimi sharoitida neft konlarning ishlash xususiyatlari, qatlamning neft berish qobiliyatini oshirish usullari, neft konlarini ishlashning tahlili, uni nazorat etish va jarayonni boshqarishish, neft qatlamini ochish va quduqni ishga tushirish, quduq tubiga ta'sir etish xususiyatlari, gaz-suyuqlik ko'targichining nazariy asoslari, quduqlarni gazlift yoki kompressor usulida ishlatish, quduqlarni favvora usulida ishlatish, quduqdarni chuqurlik nasoslari yordamida ishlatish, quduqlarni ishlatishda uchraydigan asoratlarga qarshi kurashish, yer osti va kapital ta'mir turlari, konlarda neftni yig'ish va tayyorlash mavzulariga oid mustaqil ishlarni bajarishda qanday ma'lumotlarga asosiy e'tiborni qaratishi lozimligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

1. Neft konlarini ishlash texnologiyalari

Neft qatlamini ishga tushirish jarayoni shu qatlam maydonida quduqlarni joylashtirib neftning qatlamdan quduqga tomon harakatini boshqarishi, ularning ishlash rejimini belgilash va qatlam energiyasining balansini boshqarishi orqali olib boriladi.

Neft va gazning quduqga tomon harakatini boshqarishi bilan bog‘liq, hamma tadbirlar konning ishlash tizimini belgilaydi.

Mahsulot olinadigan quduqlarning neft bilan egallangan maydonda joylashtirilishi asosan qatlam energiyasining manbai va neft-suv tutash chizig‘ining siljishiga bog‘liq.

Siljiydigan neft konturi sharoitida neftning suv yoki gaz bilan siqib chiqarilishi rejimi quduqlar neft-suv yoki neft-gaz tutash chiziqlariga parallel ravishda qatorlar bo‘ylab joylashtiriladi. Bu holda bir vaqtning o‘zida ikki-uch qatorning ishlashi maqsadga muvofiq. Neft qatlami katta maydonni egallab, bu maydonda uchtadan ortiq qator quduqlar joylashtirilganda, uchinchidan keyingi har bir qator birinchi qator quduqlarini suv bosgandan keyingina ishga tushiriladi.

Neft konturi siljimaydigan konlarda mahsulot olinadigan quduqlar to‘rtburchak yoki uchburchak usulida joylashtirilib, butun maydonni egallaydi.

Quduqlar orasidagi masofa va quduqlar joylashgan qatorlar orasidagi masofa geologik, texnologik va iqtisodiy nuqtai nazardan hisobga olinishi lozim.

Neft konlarining ishlash tizimi tasnifi ularda quduqlarning joylashish sxemasi, quduqlarning ishga tushirilish tartibi va uning jadalligi, hamda qatlamga ta’sir etish usullariga bog‘liq.

Neft konlarining ishlash loyihasini tuzishda qatlamning bosimini taminlash maqsadida suv haydash yoki haydamaslik variantlari hisobga olinadi.

Qatlam bosimini taminlash suv haydash orqali konturning tashqi qismiga, konturning ichki qismiga, qatlam o‘qi bo‘ylab, butun maydon bo‘ylab va boshqa usullar yoki gaz do‘ppisiga gaz haydash orqali amalga oshiriladi.

Konlarning oqilona ishlash tizimi quyidagi uchta ko‘rsatkich orqali belgilanadi:

- quduqlarning o‘zaro ta’siri interferensiyasi juda past darajada bo‘lishi;

- qatlamning neft bera olish koeffitsientining eng yuqori qiymatga ega bo‘lishi;

- neftning past tannarxi.

Konlarning ishlash loyihasi bir necha variantlarda tuzilib, ulardan yuqorida ko‘rsatilgan omillarga javob beradigan oqilona variant tanlanadi.

Quduqni ishlatishga topshirishdan oldin eng muhim va mas’ul bo‘lgan ishlardan biri, bu qatlamdan suyuqlik oqimini chaqirish yoki quduqni o‘zlashtirish jarayonini amalga oshirish hisoblanadi. Suyuqlik oqimi faqat quduq tubi bosimini qatlam bosimiga nisbatan tushirish orqaligina amalga oshiriladi. Quduq tubi bosimini pasaytirishdan tashqari, quduq tubi zonasidagi qatlamning oqimga ko‘rsatayotgan qarshilagini kamaytirish maqsadida quduq tubini ifloslanishlardan, qum, burg‘ilash eritmalari va sement qoldig‘idan tozalash kerak. Odatda, burg‘ilash yakunlangandan so‘ng quduq burg‘ilash eritmasi bilan to‘la bo‘ladi. Bu eritmani quduqdan zudlik bilan chiqarib tashlash kerak, chunki vaqt o‘tishi bilan eritmaning qattiq zarralari qatlam qismida cho‘kma hosil qiladi va qatlam o‘tkazuvchanligining pasayishiga hamda ifloslanishiga olib keladi.

Quduqni yuvish – burg‘ilashdan so‘ng eritma suv bilan almashtiriladi, buning natijasida quduq tubi bosimi pasayadi, quduq devorlari gilli qobiqdan tozalanadi hamda quduqdagi cho‘kmalar va qumlar chiqarib tashlanadi. Ba’zan quduq tubi bosimini tushirib borish maqsadida suv bilan yuvishdan so‘ng suv neft bilan almashtiriladi.

Quduqni o‘zlashtirishda kon amaliyotida keng tarqalgan usullardan biri havo bilan kompressorlashtirish hisoblanadi. Uglevodorod gazi yoki azot bilan kompressorlashtirishga ham ruxsat beriladi.

Hozirda quduqlar asosan quduqdagi **suyuqlik sathi bosimini tushirish** yo‘li orqali o‘zlashtiriladi, ya’ni quduqqa tushiriluvchi po‘lat kanatga o‘rnatilgan maxsus porshen-svab yordamida bajariladi. Svab, odatda, quduq ustida o‘rnatilgan armaturada quduq tubigacha tushiriluvchi diametri 73–114 mm bo‘lgan NKQda amalga oshiriladi. Svab quduqqa tushirilishida suyuqlik quyi klapanni ko‘tarib, porshen orqali NKQning ichki qismiga o‘tadi. Svab ko‘tarilganda esa klapan yopiladi va svab ustidagi barcha suyuqlik quduq og‘ziga olib chiqiladi.

Quduq tubini ifloslovchi moddalardan tozalash uchun ba’zan jelonka yordamida suyuqlik ko‘tariladi. **Jelonka** – tagi klapanli uzun ingichka chelak bo‘lib, svab singari quduqqa kanat yordamida tushiriladi. Jelonka diametri taxminan quduq diametrining 0,7 qismini tashkil etadi, uning

uzunligi esa 10 – 15 m ga yetishi mumkin. Svab yoki jelonkani tushirib-ko‘tarish jarayonlari lebyodka yordamida amalgga oshiriladi.

Quduqlarni burg‘ilashdagi yakunlovchi an’anaviy bosqichlardan biri – **qatlamni ochish bosqichidir**. Qatlam bosimi, qatlamning neftga to‘yinganlik qiymati, qatlam zonasining nomukammallik darjasи, gaz-suv-neft chegarasining holati, qatlamning joylashish chuqurligi va boshqa omillarga bog‘liq holda qatlamni ochish quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ochiq favvoralanishni oldini olish;
- quduq tubi zonasi tog‘ jinslarining tabiiy siziluvchanlik xususiyatini saqlash yoki uni yaxshilash;
- quduqning suvsiz ishslash muddatini oshirish.

Burg‘ilash orqali qatlamni ochishda eng muhim narsa yuvuvchi eritma sifatidir. Tarkibi suvdan iborat bo‘lgan burg‘ilash eritmalarini qo‘llashda qatlamga filtrat va eritmaning qattiq fazasi kirishi mumkin, bu esa qatlamning kollektorlik xususiyatining yomonlashishiga va quduq mahsuldorligining pasayishiga olib keladi.

Burg‘ilash eritmasidagi suvlar neftli qatlamga tushganda suv-neftli emulsiya hosil bo‘ladi. Filtrat qatlam g‘ovaklaridagi qatlam suvlari bilan o‘zaro ta’sirlashganda cho‘kma hosil bo‘lishi mumkin. Gilli zarrachalar filtr bilan birikkanda shishadi. Qatlam g‘ovaklari filtrat bilan to‘ladi. Bu jarayonlar neft uchun quduq tubi zonasi o‘tkazuvchanligining pasayishiga olib keladi.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida tarkibi suvdan iborat bo‘lgan eritmалarga maxsus sirt faol moddalar (SFM) qo‘shiladi, neft tarkibli eritmalar, ko‘piklar va gazsimon agentlar qo‘llanilishi mumkin.

Qatlam bosimi gidrostatik bosimdan yuqori, o‘tkazuvchanligi past va gilli zarrachalardan tarkib topgan qatlamlar neft tarkibli og‘irlashtirilgan eritmalar yordamida ochiladi. O‘tkazuvchanligi yuqori darzli, gilli, zarralarsiz tog‘ jinslaridan tarkib topgan qatlamlarni ochishda SFM qo‘shilgan og‘irlashtirilgan gilli eritmalaridan foydalilanadi. Mahsuldor gorizont bosimi gidrostatik bosimga teng bo‘lgan hollarda o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan xlorkaltsiyli yoki bo‘rli eritmalaridan foydalilanadi. Agar jinslar o‘tkazuvchanligi past va gilli zarralar mavjud bo‘lsa, neft tarkibli eritmalar, emulsiya yoki ko‘piklardan foydalilanadi. Gidrostatik bosimdan past bosimli qatlamlarni ochishda zichligi past bo‘lgan ko‘piklardan, gazsimon agentlardan foydalilanadi.

Qatlamni ochish oralig‘i quduqning gaz-suv-neft chegarasiga nisbatan strukturadan qanday joylashganligiga bog‘liq. Ochish oralig‘i,

odatda, mahsuldor gorizontdan pastroqda ochiladi, agar qatlam tag qismida qatlam suvlari mavjud bo'lmasa, zumpf ochish maqsadida shunday qilinadi.

Ta'sir etuvchi energiya kuchiga qarab neft konlarining ishlash usuli quyidagilarga bo'linadi: suv bosimi ta'siridagi usul; gaz bosimi ta'siridagi usul, gaz do'ppisi usuli, erigan gaz usuli, taranglik usuli, gravitatsion usul. Birinchi va ikkinchi usullar «siqib chiqarish usuli» deb, qolgan uch usul esa «so'nib borish usuli» deb ataladi.

Konning ishlash jarayoni va uning mahsuldorligi ishlash usuliga bog'liq. Mahsuldorlikning asosiy belgisi konning neft beraolishlik koeffitsientiga bog'liq.

Konlarning neft beraolishlik koeffitsienti kondan olinishi mumkin bo'lgan neft miqdorining shu kondagi umumiyl neft zaxirasiga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi:

$$\eta = Q_o \setminus Q_{zax}$$

bu yerda: η – neft beraolishlik koeffitsienti; Q_o – olinishi mumkin bo'lgan neft miqdori; Q_{zax} – kondagi umumiyl neft zaxirasi.

Neft beraolshilik koeffitsienti foizda yoki ulush birligida o'lchanadi. Konlarning neft beraolishlik koeffitsienti ulardag'i mavjud usulga bog'liq.

Chunonchi, suv bosimi usulida neft beraolishlik koeffitsienti 0,6–0,8 ga yaqinlashadi, ya'ni qatlamdag'i bor mahsulotning 60–80 foizini yer yuzasiga olib chiqishi mumkin.

Gaz bosimi ta'siridagi usulda neft beraolishlik koeffitsienti 0,5–0,7 ga borishi mumkin.

Qolgan uch usul uchun neft beraolishlik koeffitsienti 0,15–0,3 dan oshmaydi. Demak, konnnig mahsuldorligini oshirishning asosiy omillaridan biri – uning neft beraolishlik qobiliyatini oshirish yo'llarini takomillashtirishdan iborat. Yuqorida aytib o'tilgan usullar asosan tabiiy usullardir. Konning ishlash usullariga qarab undagi texnologik ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan tabiiy usullar sof holda kamdan-kam uchraydi. Ular odatda aralash usul tarzida (masalan, chekka suv bosimi va erigan gaz usuli, chekka suv bosimi va taranglik usullari va h.k.) uchraydi. Konlarni ishlatish jarayonida bu usullar bir turdan ikkinchi turga o'tishi ham mumkin.

Kon mahsuldorligini oshirish maqsadida ba'zan samarasiz tabiiy usuldan samarali sun'iy usulga o'tiladi. Chunonchi, tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda erigan gaz usulidan sun'iy ravishda gaz bosimi ta'siridagi usulga o'tish mumkin. Buning uchun ma'lum quduqlar orqali yuqorida gaz haydalib, sun'iy gaz do'ppisi hosil qilish yoki mavjud gaz do'ppisining energiyasini oshirish mumkin.

Tekshirish uchun savollar

1. Neft konlarining ishlash jarayoni qanday tushuniladi?
2. Konlarning ishlash tizimi to'g'risida umumiylash tushuncha.
3. Siljiydigan va siljimaydigan konturlar sharoitida mahsulot olinadigan quduqlar qanday joylashtiriladi?
4. Konlarning ishlash tizimi tasnifi.
5. Ishlashning oqilona tizimsi to'g'risida tushuncha.
6. Neft konlarining loyihasini tuzishda qatlam bosimini ta'minlashning qaysi usullari qo'llaniladi?
7. Suv haydash usullarini izohlab bering.
8. Konni ishlashning oqilona varianti qanday tanlanadi?
9. Neft konlarni ishlash usullarining samaradorligi qanday aniqlanadi?

2. Neft konini ishlash loyihasini tuzish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlash

Loyiha tuzish uchun geologik o'r ganish natijasida quyidagi ma'lumotlar tayyorланади:

- qatlam geometriyasi; uning strukturasi; qalinligi; alohida qatlamchalarining bir-biri bilan bog'liqligi, neft konturi;
- qatlam energiyasining manba'lari;
- qatlamning boshlangich bosimi, suyuqlikning gaz bilan to'yinganlik bosimi, favvora bilan ishlashning minimal bosimi;
- qatlamni tashkil etgan tog' jinslarining fizikaviy xususiyatlari g'ovaklilik, o'tkazuvchanlik, taranglik, ularning donadorlik tarkibi
- suyuqlik va gazlarning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari;
- gidrodinamik tadqiqotlar natijasi.

Kondagi neft va gaz miqdorini hisoblash uning loyihasini tuzish va quduqlarning ratsional texnologik rejimini tanlash uchun quduqlarda gidrodinamik va termodinamik tadqiqotlar o'tkaziladi.

Gidrodinamik tadqiqotlar yer osti gidravlikasining teskari masalalarini yechishga asoslangan bo‘lib, suyuqlik yoki gazning qatlamdan quduqqa oqishi sharoitlari, qatlamning asosiy parametrlari - quduq ostki qismidagi o‘tkazuvchanlik, gidroo‘tkazuvchanlik, pezoo‘tkazuvchanlik (æ), qatlamning boshlang‘ich va hozirgi sharoitdagi bosimi, neft, gaz va suv bilan to‘yinganlik, qatlamning mahsuldorlik koeffitsienti va boshqa parametrlar o‘rganiladi.

Gidrodinamik tadqiqotlar quduqlarning barqaror ishlash rejimi oqimga nisbatan tekshirib indikator chiziqlar orqali o‘rganish yoki beqaror rejim-quduq tubi bosimining tiklanishini ko‘rsatuvchi chiziqlarni o‘rganishiga asoslangan.

Gidrodinamik tadqiqotlar natijasida shuningdek quduqlarning o‘zaro ta’siri, qatlam kesimi bo‘yicha suyuqlik yoki gazning quduqqa oqishi ham o‘rganiladi.

Termodinamik tadqiqotlar quduq devori bo‘ylab va uning ostki qismida haroratning o‘zgarishini o‘rganishga asoslangan. Bu tadqiqotlar natijasida ham qatlam kesimi bo‘ylab suyuqlik yoki gazning oqimi va qatlamning geologo-geofizikaviy parametrlari aniqlanadi.

Gidrodinamik tadqiqotlarda quduqlarning ishlash rejimi o‘zgartirilib, suyuqlik yoki gazning sarflanish miqdori, qatlam va uning ostki qismi bosimi o‘lchanib boriladi.

Termodinamik tadqiqotlarda shuningdek quduq ostki qismi va quduq uzunligi bo‘ylab haroratning o‘zgarishi o‘rganiladi.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar qatlam parametrlari va quduqning ostki qismi holatini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda tadqiqotlar natijasida olingan ma’dumotlarni o‘rganishning turli usullari mavjud bo‘lib, ular grafik va analitik turlarga bo‘linadi.

Har bir usulning qulayligi va kamchiligi hisobga olinib, muayyan sharoit uchun tegishli usul tanlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqot usullari ishlash sharoitidan qat’iy nazar hamma turdagи mahsulot olinadigan, suv yoki gaz haydaladigan, p’ezometrik quduqlar uchun o‘tkazilishi mumkin.

Bu bo‘limni o‘rganishda tadqiqotlarni o‘tkazish texnikasi va texnologiyasiga ahamiyat bering, unda ishlataladigan asbob va moslamalarni o‘rganing, suyuqlik va gazning sarflanishini o‘lchaydigan asboblar, bosimni o‘lchash va quduqdagi suyuqlik sathini o‘lchashga ahamiyat bering.

Chuqurlikda o‘lchovlar o‘tkazadigan manometr, termometr, p’ezograf, debitomer va boshqa asboblarning tuzilishi va ishlash xususiyatlarini o‘rganish lozim.

Shuningdek tadqiqotlar o‘tkazishda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish masalalarini ham o‘rganish kerak.

Odatda, geologiya-qidiruv tashkilotlari tomonidan topilgan yangi kon to u sanoat miqyosida ishga tushib ketguncha konni ishlatishning quyidagi loyihalash bosqichlaridan o‘tadi:

- sinov sanoat loyihasi;
- sinov-sanoat ishlashning texnologik sxemasi;
- ishlashning texnologik sxemasi;
- ishlash loyihasi;
- aniqlashtirilgan ishlash loyihasi;
- ishlash tahlili.

Har bir loyihalash bosqichiga mos ravishda konni jihozlash bo‘yicha loyihalash ishlari ham olib boriladi. Hamma ishlash va ishlatish loyihalarda quyidagilar nazarda tutilgan bo‘lishi shart:

- konni (yoki alohida bir uyumni) bir tekisda burg‘ilash ishlari;
- tasdiqlangan neft, gaz va yo‘ldosh komponentlarning zaxiralaridan oqilona va samarali foydalanish;
- konning eng mahsuldor qismini ishlatib, qolgan qismining qolib ketishiga va zaxiralarning yo‘qotilishiga olib keladigan holatga yo‘l qo‘ymaslik;
- konda qo‘shimcha qidiruv ishlari olib borish;
- ko‘p qatlamlı konlarda mustaqil ishlatiladigan obyektlarni asoslab berish.

Loyiha hujjatlari konda qilinishi kerak bo‘lgan qurilish, jihozlash ishlari, shuningdek, asbob-uskunalar, jihozlar sotib olinishi uchun bank tashqilotlari tomonidan pul mablag‘lari ajratib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Endi har bir konning ishlash va ishlatish loyiha hujjatlari haqida biroz batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

«Sinov sanoat loyihasi» neft va gaz konlarini loyihalashtirishdagi birinchi bosqich bo‘lib, qidiruv ishlari tugallanmagan konlar uchun tuziladi va ishlatuvchi tashkilot orqali tasdiqlanadi. Bu loyihaning asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lib, kondan qidiruv ishlari davrida olingan

dastlabki ma'lumotlarni qayta tekshirish, yangi ma'lumotlarni olish, kon zaxiralarini hisoblash uchun kerakli ko'rsatkichlarni aniqlash, ishlash tizimini asoslab berish, alohida ishlashi mumkin bo'lgan ob'ektlarni ajratib berish, neft va gaz olish imkoniyatlarini, sur'atini bashorat qilish kabi ishlar mo'ljallanadi. Texnik-iqtisodiy hisoblashlar bu loyiha ishida eng kamida 20 yil muddatni qamrab olishi kerak.

«Sinov ishlatish loyihasi»da quyidagilar asoslangan bo'lishi kerak:

a) konning boshlang'ich geologik modeli;

b) ishga tushirilishi mumkin bo'ladigan qidiruv quduqlarining soni va kon maydonidagi o'rni; (S toifa zaxiralari joylashgan maydonlar uchun);

v) ishga tushiriladigan ishlatuvchi quduqlarning soni va kon maydonidagi o'rni (S_1 toifa zaxiralari joylashgan maydonlar uchun);

g) bajarilishi kerak bo'lgan geofizik tadqiqotlarning umumiyligi hajmi va bu tadqiqotlar natijasida olinishi kerak bo'lgan geologik tuzilishiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar;

d) kern, qatlam holatida olingan neft, gaz, kondensat namunalarining tajribaxonalarda bajarilgan to'liq tahlili;

e) mo'ljallangan barcha turdag'i quduqlar majmui, neft, gaz, suyuqlik olishning va suv haydashning eng maksimal qiymatlari, konga ishlatilishi kerak bo'lgan neft, gaz tayyorlovchi, suv ajratuvchi va transport jihozlarining turlari, umumiyligi miqdori.

Odatda, «Sinov sanoat loyihasi» 3–5 yilga mo'ljallab tasdiqlanadi, chunki ana shu davr ichida aniqlanishi kerak bo'lgan barcha ma'lumotlar aniqlanadi va loyihalashning keyingi bosqichiga o'tish mumkin bo'ladi.

Tekshirish uchun savollar

1. Loyihalash uchun kerakli boshlangich ma'lumotlar nimalardan iborat?
2. Tadqiqotlarning asosiy vazifalari.
3. Quduqlarni tadqiqot etishning qaysi usullarini bilasiz?
4. Barqaror rejim sharoitida o'tkaziladigan tadqiqotlar nimaga asoslangan?
5. Beqaror rejimda o'tkaziladigan tadqiqotlar nimaga asoslangan?

6. Termodinamik tadqiqotlarning mohiyati nimada?
7. Tadqiqot natijalarini o‘rganish qanday amalga oshiriladi?
8. Barqaror rejimda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasining tahlili.
9. Beqaror rejimdagi tadqiqotlar natijasining tahlili.
10. Indikator diagrammasi qanday chiziladi va u nimani bildiradi?
11. Bu diagrammaning shakliga qanday ko‘rsatkichlar ta’sir etadi?
12. Quduqning mahsuldorlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
13. Bosim tiklanishi chizig‘ini o‘rganishning qanday usullarini bilasiz?
14. Quduqning “potensial mahsuloti” deganda nimani tushunasiz?
15. Tadqiqotlar natijasida qatlarning qaysi parametrlari aniqlanadi?
16. Quduqlarni tadqiqot etishning qanday xossalari bilasiz?
17. Qatlam va quduq osti bosimi qanday aniqlanadi?

3. Neft konlarini ishlash loyihasini tuzishning gidrodinamik asoslari

Loyiha tuzishda konning ishlash ko‘rsatkichlari gidrodinamik hisoblashlar natijasida aniqlanadi. Real konlar odatda noto‘g‘ri geometrik shaklga ega. Gidrodinamik hisoblashlar matematik asoslarda olib borilgani uchun dastavval konning ishlash sharoiti sxemasi tuzilishi kerak. Kon shaklining sxemasini tuzishda zarur shartlar: neft bilan egallangan maydon yuzasi, mahsulot olinadigan quduqlar va ular joylashgan qatorlar soni real kon va sxemada bir xilligicha qolishi kerak.

Shuningdek neft konturi ham sxemalashtiriladi. Keltirilgan ta’minlanish konturini aniqlashda neft va suv qovushqoqliklarining nisbati hisobga olinadi.

Konning ishlashi texnologik ko‘rsatkichlarni hisoblaganda quyidagilar aniqlanadi: qatlardan jami olinadigan mahsulot miqdori; quduqlar joylashgan qatordan olinadigan mahsulot; har bir quduqning o‘rtacha mahsuloti.

To‘g‘ri chiziqli cheksiz batareyalarda quduqlarning mahsuloti ichki va tashqi qarshiliklar hisobga olingan sharoitda tenglamalar tizimsi orqali aniqlanadi. Ichki qarshilik radius ichida oqimga qarshi geometrik qarshilik hisobga olinadi. To‘la geometrik qarshilik shaklida aniqlanadi.

$$\mu\beta\kappa\hbar = \delta l \pi \ln \frac{\delta_l}{\pi r_l}$$

Gidrodinamik hisoblashlarni yengillashtirish maqsadida elektro-gidrodinamik muvofiqlikka asoslanib elektrik sxema tuziladi. Elektr zanjir uchun Kirxgofning ikkinchi qonuniga muvofiq

$$\Delta U = \sum_{\gamma=1}^n J_\gamma \cdot R_\gamma$$

Elektrodinamik muvofiqlikka asosan: kuchlanish o‘zgarishi va bosimlar nisbati; tok kuchi quduq mahsuloti Q ; elektr qarshiligi R va gidrodinamik qarshiliklar muvofiqlashtiriladi.

Konlar taranglik rejimi sharoitida ishlaganda bosimlar nisbati favvora davrining cheklangan bosimi orqali qatlamda esa to‘yinganlik bosimi orqali belgilanadi. Bosimning kritik holatgacha pasaymasligini ikki usulda ta’minlash mumkin. Birinchidan qatlamdan suyuqlik olish sur’atini pasaytirish mumkin. Bunda bosim pasayishi sekinlashadi, lekin konning ishlash muddati uzayadi. Ikkinchidan, konning bosimini ta’minlash loyihalashtirilishi mumkin.

Erigan gaz rejimi sharoitida qatlam energiyasi maydon bo‘ylab bir xil ta’sir etadi. Bu holda tog‘jinslari donadorligi bo‘yicha bir xil bo‘lsa, quduqlar butun maydon bo‘ylab teng joylashtiriladi.

Tarkibida erigan gaz bo‘lgan neft suv yoki gaz bilan siqib chicharilipsh sharoitida quduqlar konturga parallel ravishda qatorlar orqali joylashtiriladi.

Erigan gaz rejimi sharoitida kon ishlashining asosiy ko‘rsatkichlari - mahsulot olish, bosim, erigan gaz miqdori kabilar bir quduq misolida aniqlanishi mumkin.

Tarkibida erigan gaz mavjud bo‘lgan neft masulotining bosimlar nisbatiga bog‘liqligi S.A.Xristianovich funksiyalari orqali aniqlanadi.

Konning ishlash muddati alohida bosqichlarga bo‘linadi. Har bir bosqich konturning unga eng yakin quduqlar qatoriga siljish davri bilan belgilinadi.

Konning ishlash samarodorligi bir qator omillarga bog‘lik. Asosiy omillar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- xalq xo‘jaligining ehtiyojini qondiradigan darajada neft olish sur’ati;
- sanoat zaxiralarning ishlatalish darajasi;
- mehnat va material harajatlar belgisi.

Tekshirish uchun savollar

1. Nima uchun konning ishlash sharoiti sxemalashtiriladi?
2. Konning shakli qanday sxemalashtiriladi?
3. Neft konturi qanday sxemalashtiriladi?
4. Konning ishlash loyihasini tuzishda neft va suvning kovushkokligi nisbati qanday hisobga olinadi?
5. Ichki va tashqi qarshiliklarning fizikaviy mohiyati?
6. Loyihalashda elektrogidrodinamik muvofiqlashtiritning asoslari.
7. Suv bilan siqib chiqarish rejimida asosiy ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi?
8. Taranglik rejimi sharoiti uchun loyihalashning xususiyatlari.
9. Eriqan gaz rejimi sharoitida Xristianovich funksiyasi qanday hisobga olinadi?
10. Konning ishlash davridagi bosqichlar qanday aniqlanadi?
11. Konlarning ishlash samaradorligi qanday aniqlanadi?

4. Gaz do'ppisi va chekka suvlar bosimi sharoitida neft konlarning ishlash xususiyatlari

Neft-gaz konlariga gaz do'ppisi va chekka suvlar bosimi mavjud hollar hisobga olinadi. Suv bilan siqib chiqarilish bosimiga qarab bu konlar ikki turga bulinadi:

- chekka suvlar bosimi ta'sirida ishlaydigan neft-gaz konlari;
- taglik suvlar ta'sirida ishlaydigan konlar.

Birinchi turdag'i konlarda gaz-neft konturi bilan egallangan maydon va neft-suv konturi bilan egallangan maydonlarning kon umumiyligi maydoniga nisbati 0,1 ga teng.

Ikkinci turdag'i konlarda gaz bilan egallangan maydon, suv-neft kontakti maydoni va neft bilan egallangan maydon o'zaro o'lchami hisoblanadi.

Bunday konlar ishlashining texnologik prinsiplarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Kondagi neft qismining ishlash navbati va sur'ati gaz qismiga nisbatan ildamroq bo'lishi;
2. Neft qismining ishlashida neft gaz bilan emas, suv bilan siqib chiqarish jarayoni;
3. Neft olish bilan bir vaqtida gaz do'ppisidan gaz olishni jadallashtirish.

Birinchi prinsip belgilanishining sababi shundaki, neft va gaz qismlarining ishga tushirilishi ketma-ketligi va sur'ati qatlamning neft berish qobiliyatiga deyarli ta'sir etmaydi. Gaz qismidan jadal ravishda gaz olishda ham, neft qismidan jadal ravishda neft olishda ham konning gaz berish qobiliyati 90 %dan oshadi. Ikkinci holda gaz qismidagi bosim dastaval pasaytiriladi, so'ngra esa qatlamdan gaz olib gaz rejimida davom etadi. Birinchi prinsip vaqtida qatlamning neft berish qobiliyati 10-20 dan oshmaydi.

Ikkinci prinsip neftning suv bilan siqib chiqarilishi, gaz bilan siqib chiqarishga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkich bilan ajratiladi. Birinchi holda siqib chiqarish koeffitsienti 0,6-0,8, ikkinchi holda esa 0,3-0,5 ga teng. Suv bilan siqib chiqarishda gaz bilan siqib chiqarishga nisbatan egallash koeffitsienti yuqoriligi hisobga olinsa, neft berish qobiliyati koeffitsienti orasidagi farq yana ham yaqqolroq seziladi.

Neft-gaz konlarini ishlashda neft gaz bilan siqib chiqarishga nisbatan suv bilan siqib chiqarilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Neft qismining ishlashi bilan bir vaqtida gaz do'ppisidagi gaz zaxirasidan foydalanish maqsadida uchinchi prinsip ham maqsadiga muvofiqdir.

Tekshirish uchun savollar

1. Neft-gaz konlari qaysi turlardan iborat?
2. Neft-gaz konlarini ishlashning nazorat qilinish xususiyatlari nimadan iborat?
3. Neft-gaz konlarini ishlashning asosiy texnologik prinsiplari nechta?
4. Qatlam energiyasi faol bo'lgan neft uyumlarini necha guruhga bo'lish mumkin?

5. Qatlamning neft berish qobiliyatini oshirish usullari

Neft va gaz uyumlarini ishlatishning samaradorligi, bu uyumdan jami olingan mahsulot miqdori yoki neft va gaz bera olishlik koeffitsienti orqali belgilanadi.

Umumiylar tarzda uyumning neft beraolishlik koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi.

$$\eta = Q_{\text{olin}} / Q_{\text{bal.}}$$

bu yerda: Q_{olin} – olinishi mumkin bo‘lgan zaxira; Q_{bal} – uyumda neftning balans zaxirasi.

Har bir joriy holat uchun ham neft beraolishlik koeffitsientini hisoblash mumkin:

$$\eta = \Sigma Q_n / Q_{\text{bal}};$$

bu yerda: ΣQ_n – joriy holat uchun jami olingan neft miqdori.

Neft beraolishlik koeffitsienti bir birlikda yoki foizda hisoblanadi.

Neft beraolishlikni oshirish usullarini quyidagicha tasniflash mumkin:

A. Qatlamning harakatlantiruvchi kuchlariga ta’sir etish usullari:

1. Qatlamga suv haydash.
2. Qatlamga gaz haydash.

B. Qatlamning harakatlantiruvchi kuchlari va neftning fizik xossalariiga ta’sir etish usullari:

1. Qatlamga issiq suv haydash.
2. Qatlamga isitilgan bug‘ haydash.
3. Neft qatlamini gazlashtirish.
4. Vakuum jarayon.

C. Qatlam quduq tubi qismining fizik xossalariiga ta’sir etish usullari:

1. Kimyoviy usullar.
2. Fizik usullar.
3. Mexanik usullar

D. Konlarni shaxta usulida va gorizontal quduqlar yordamida ishlatalish.

1. Shaxta usuli.
2. Gorizontal quduqlar usuli.

E. Jadallahgan usulda suyuqlik olish usuli.

Yakuniy neft beraolishlikni oshirishga yo‘naltirilgan uyumlarga ta’sir etishning zamonaviy usullarini uchta guruhga bo‘lish mumkin.

1. Qatlamga haydaladigan suvning neftni yuvish xossalariini yaxshilash.
2. Neft qatlamlariga issiqlik usullari bilan ta’sir etish.
3. Neftni u bilan aralashuvchi suyuqliklar yoki gazlar bilan siqib chiqarish.

Bu guruhlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Tog‘ jinslari zarrachalarining yuzasi neftga nisbatan suv bilan yaxshi ho‘llansa, ular «gidrofil tog‘ jinslari», suvgaga nisbatan neft bilan yaxshi ho‘llansa, «gidrofob tog‘ jinslari» deyiladi.

Qatlam g‘ovaklaridan neftni suv bilan siqib chiqarish jarayonida suv-neft o‘rnini egallaydi. Lekin g‘ovaklarda va tog‘ jinslari zarrachalarida yuza kuchlari ta’sirida neft tomchilari va plyonkalari qolib ketadi. Qoldiq neftni esa neft-suv tutash yuzasidagi sirt-taranglik kuchini pasaytirish natijasida yuvish mumkin.

Shuning uchun neft-suv tutash yuzasidagi sirt-taranglik kuchini kamaytirish maqsadida bir qator sirt faol moddalari qo‘llaniladi. Sirt-faol moddalari sifatida sulfanol, kaustik soda, OP reagenti va bir qator ishqoriy yuvuvchi moddalar ishlataladi.

Uyumlarga issiqlik usullari bilan ta’sir etish natijasida uyum tog‘ jinslari va ularga joylashgan suyuqlik isitilishi natijasida neft qovushqoqligi pasayadi va neft-tog‘ jinsi yuzasida sirt-taranglik kuchi hamda adsorbsion kuchlar kamayadi. Natijada g‘ovaklardan neftni siqib chiqarish ancha yengillashadi.

Issiqlik usullarini ikkiga bo‘lish mumkin.

1. Qatlam ichida yonuvchan siljuvchi o‘choq uyushtirish.
2. Qatlamga issiq suv, bug‘ va boshqa issiqlik yetkazuvchi moddalar haydash.

Birinchi holatda chuqurlik isitkich uskunasi yordamida quduq tubi qizdirilib, yuqori haroratli zona tuziladi. Yonish o‘chog‘ini hosil qilish uchun turli chuqurlik (elektr yoki gaz) isitkichlari qo‘llaniladi.

Quduq tubi isitilgach, neft alanganishi uchun quduqqa maxsus agent beriladi va boshlang‘ich yonish o‘chog‘i qo‘zg‘atiladi. Bu agent sifatida havo, havo va tabiiy gaz aralashmasi, kislorodga boyitilgan havo va boshqalar ishlataladi.

Oksidlanuvchi agentning muntazam berilishi natijasida yonuvchan o‘choqning oksidlanuvchi oqim yo‘nalishiga qarab harakati boshlanadi. Yonuvchan o‘choq ekspluatatsion quduqqa nisbatan harakatlanganidan so‘ng yondiruvchi quduq faqat haydovchi sifatida xizmat qiladi.

Qatlamda yonish natijasida katta issiqlik ajralib, neft isitiladi va haydaladigan havo bosimi ta’sirida ekspluatatsion quduqqa nisbatan harakat qila boshlaydi.

Qatlamga katta hajmda issiq suv haydalsa isitilish zonasi ancha masofaga tarqaladi.

Harorat ortishi neft qovushqoqligini kamaytirish, molekulyar yuza kuchlarining o‘zgarishi va qatlam suyuqliklarining hajmini oshirishga olib keladi.

Bu omillarning hammasi umumiyligi natijada qatlam neft bera olishligini oshirishga sabab bo‘ladi.

Neftni u bilan aralashuvchi eritmalar yordamida siqib chiqarishda ular orasida chegara hosil bo‘lmaydi.

Shu asosda g‘ovakli muhitdan neftni siqib chiqarishning quyidagi yangi usullari ishlab chiqilgan.

1. Neftni suyultirilgan gazlar bilan siqib chiqarish (8 MPa dan yuqori bosimda).

2. Neftni boyitilgan yoki yog‘li yo‘ldosh gaz bilan siqib chiqarish (14 MPa dan yuqori bosimda).

Neftni yuqori bosimli quruq gazi bilan siqib chiqarish (21 MPa dan yuqori bosimda).

Quduqni o‘rganishdan avval har bir usulning ishlatilish sharoitini, bu usullarning ijobiy va salbiy tomonlarini puxta o‘rganish lozim.

Har bir usulning texnologik xususiyatlarini, ularda ishlatiladigan moslamalarni o‘rganish kerak. Ishlatiladigan usulning iqtisodiy samarodorligiga ahamiyat berish zarur.

Tekshirish uchun savollar

1. Konlarga ta’sir etishning qaysi usullarini bilasiz?
2. Qatlamga suv haydash bilan ikkilamchi usullarning o‘xshashligi nimada?
3. Suv haydalganda qatlamning suv bilan egallanish koeffitsienti qanday bo‘ladi?
4. Suv haydashning har xil usullarini izohlab bering.
5. Qaysi hollarda qatlamga gaz yoki havo haydaladi?
6. Suv haydash jarayonining texnologik sxemasini tushuntirib bering.
7. Haydaladigan suv yoki gaz miqdori qanday aniqlanadi?
8. Suv yoki gaz haydashdagi bosim qanday aniqlanadi?
9. Jadal sur’atda suyuqlik olishning mohiyati nimada?
10. Issiqlik usullari bilan ta’sir etishning xususiyatlari.
11. Suv, bug‘, yoki gaz haydashda ishlatiladigan moslamalar qanday talablarga javob berishi kerak?

12.Neftning suv bilan siqib chiqarilish jarayonini qanday mukammallashtirish mumkin?

6. Neft konlarini ishlashning tahlili, uni nazorat etish va jarayonni boshqarish

Neft konini ishlash loyihasini amalga oshirishni birinchi davridanoq olingan kon-geologik ko'rsatgichlarni va ishlash ko'rsatgichlarini tahlil qilish boshlanadi.

Koni ishlash jarayonini boshlanqich, har kunlik tahlil qilishni boshqarmaning geologik xizmati yoki markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi yoki ilmiy va ishlab chiqarish ishlari sexi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlashni boshlanqich tahlil qilishning vazifalari quyidagilar:

1. quduqlar va qatlamlarni geofizik gazogidrodinamik va maxsus tadqiqotlari natijalarga ishlov berish va tahlil qilish.
2. Konni ishlashni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish.
3. Neft olishni jadallashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijalarini tahlil qilish.
4. Konni ishlash loyihasini alohida qismlariga tuzatish kiritish.

Quduqlar va qatlamlarni tadqiqot qilish natijalarini qayta ishlash quyidagilarga yordam beradi:

- qatlam ko'rsatgichlarini aniqlaydi;
- quduqqa neftni oqim tenglamasidagi sirqish qarshiligini aniqlaydi;
- yangi va ishlatilayotgan quduqlar uchun texnologik rejimni o'rnatish;
- qalinlik bo'yicha mahsuldor yotqiziqlarni sirqish darajasini - ishlovchi va ishlamaydigan oraliqlarini aniqlash;
- quduqlar va qatlamlarni joriy gazkondensat tasnifini o'rnatish.

Neft va gaz uyumlarini oqilona ishlatish, har bir bosqichda loyiha darajasida qazib chiqarish faqatgina tizimli kon geologik nazorat qilish bilan ta'minlanadi. Neft va gaz uyumlarini ishlatishni nazorat qilish qazib chiqarish, haydovchi ba boshqa quduqlarni tadqiq qilish, suv-neft tutash yuzasini siljishi, quduqlarni suv bosishi va boshqalarni kuzatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar davriy ravishda kompleks qayta ishlanadi va mufassal tahlil qilinadi. Bu ishlatish holatini nazorat qilish va qabul qilingan loyihadan chetga chiqishni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Neft quduqlarida o'tkaziladigan kon tadqiqotlarining vazifasi ular ishining asosiy ko'rsatgichlarini aniqlashdan iborat. Bunda har bir texnologik tarzda debitlar, qatlam va quduq tubi bosimi, gaz omillari, mahsulotdagи suvning miqdori o'lchanadi. Uyumni ishlatishning boshlang'ich bosqichida quduqlar, ish xarakterini to'liq aniqlash va oqilona ishlatish tarzini o'rnatish uchun turli tarzlarda tadqiq qilinadi. Quduqlarni ishlatish jarayonida odatda ular qaysi tarzda ishlatilayotgan bo'lsa shu tarzda tadqiq qilinadi va olingan ma'lumotlar bo'yicha uyumni ishlatish holatini hisobga olib navbatdagi ishlatish davriga ish tarzi o'rnatiladi. Quduqlarda kon tadqiqotlari o'tkazish, qazib chiqarish va haydovchi quduqlarda o'tkazilishi lozim bo'lgan ishlarning minimumi hisoblanadi. Lekin ular obyektlar va uyumlarni ishlatishni to'liq kon geologik nazorat qilishni ta'minlashga yetarli bo'lmaydi.

Avvalo bu kompleks tadqiqot ishlari yagona quduqlar seriyasi bilan ishlatish maqsadida bitta obyektga birlashtirilgan qatlamlar guruxini ishlatishni nazorat qilishni ta'minlaydi. Bu usullar bilan aniqlangan quduqning ish ko'rsatgichlari butun obyektga taaluqli bo'ladi. Har bir qatlamni ishlatish jarayonida o'zining kollektorlik xossalari, neftning sifati, energetik resurslari va boshqa xususiyatlariga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim qatlamlar mahsuldor, yaxshi neft beradi, boshqa qatlamlarning kollektorlik xossalari past, deyarli neft bermaydi. Bitta haydovchi quduqlar tizimi bilan qatlamlarga suv haydalganda biri suvni yaxshi qabul qiladi, boshqalari-yomon, qatlamlarning bir qismi esa umuman qabul qilmaydi. Bu uyumlarni bir tekis ishlatib bo'lmasligiga olib keladi.

Odatda, kollektorlik xossalari yaxshi mahsuldor qatlamlarning zaxiralari tez qazib chiqariladi. Bu qatlamlarda qazib chiqarish quduqlari birinchi navbatda suvlanadi, shu vaqt ni o'zida mahsuldorligi kichiq bo'lgan boshqa qatlamlarda ahamiyatli qoldiq neft zaxiralari mavjud bo'ladi.

Neft zaxiralarini notekis qazib chiqarish bitta katta qalinlikdagi, lekin har turli qatlamlarda ham bo'ladi. Bunday qatlamlarda quduqqa birinchi navbatda qatlamning kollektorlik xossalari yaxshi bo'lgan qismidan neft keladi. Quduqqa suv haydalganda ham shu narsa kuzatiladi. Bu holat gaz uyumlarini ishlatishda ham sezildi.

Murakkab tuzilishga ega bo'lgan konlarni ishlatishni kon geologik nazorat qilish uchun keyingi vaqtarda yangi usullar ishlab chiqildi va yangi zamonaviy asbob-uskunalar yaratildi.

Tadqiqotlarning yangi turlari birinchi navbatda har bir qatlam va qatlamchalarni ishlatishni alohida nazorat qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Bunga alohida qatlamlarning qazib chiqarish quduqlaridagi debitlarini o'rnatish yoki haydovchi quduqlarning qabul qiluvchanligini aniqlash, hamda obyektdagi har bir qatlamning bosimini aniqlash yo'li bilan erishiladi.

Murakkab tuzilishga ega bo'lган uyumlar va ishlatish obyektlarining alohida qatlamlarini ishlatishni nazorat qilishning yangi usullariga radioaktiv izotop bilan tadqiqot, quduqlarining debitlari va qabul qiluvchanligini masofali chuqurlik debitomer va rasxodomerlari bilan o'lchash, kon-geofizikasi tadqiqotlarining alohida turlari va boshqalar kiradi.

Radioaktiv izotoplar usuli haydovchi quduqlarda suvni qabul qiladigan qatlamlarni ajratish imkonini beradi. Buning uchun quduqqa nasos kompressor quvuri (NKQ) orqali radioaktiv izotopli suv haydaladi. Faollashtirilgan suv bostirilgandan so'ng gamma-usul (GU) bilan o'lchanadi va izotoplar haydalgunga qadar bajarilgan nazorat GU bilan solishtiriladi. Suv yutiladigan oraliqlar qarshisida qatlamning quduq tubi qismida izotoplarning absorbsiyasi natijasida bir necha barobar yuqori anomaliya GU diagrammalarida belgilanadi. Lekin radioaktiv izitoplar usuli qaysi qatlam qancha suv qabul qilishini aniqlash imkonini bermaydi.

Quduqlarning debiti yoki alohida qatlamlarning qabul qiluvchanligi asosan chuqurlik debitomerlari va rasxodomerlari bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda chuqurlik debitomer-rasxodomerlari keng tarqalgan. Bu asboblar alohida qatlamlarning haydovchi quduqlarda qabul qiluvchanligi va alohida qatlamlarning qazib chiqarish quduqlaridagi debitlarini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Avtomatik elektron boshqaruqli masofali RGD-1, RGD-2, RGT-1 asboblari nisbatan zamonaviy hisoblanadi.

Qatlamni ishlatishni nazorat qilish uchun kon geofizikasi usullaridan foydalilanadi. Neytronli gamma-usuli (NGM) va neytron-neytronli-usuli (NNU) suvli va minerallashgan suv bilan suvlangan qatlamlarni ajratishda yaxshi natijalar beradi. Hozirgi vaqtidada favvora quduqlarida NKQ orqali tadqiqotlar o'tkazishga imkon beradigan kichik o'lchamli (sig'imli) asboblar konstruktsiyalangan. Neytronlarning impulsli generatoridan joriy holatini aniqlash yaxshi natijalar beradi.

Neft va gaz uyumlarini ishlatish holatini tahlil qilish, qazib chiqarish, haydovchi, p'ezometrik va nazorat quduqlarining tadqiqot natijalarini

umumlashtirish va tahlil qilish neft va gaz uyumlarini ishlatish holatini tahlil qilish va ularni samarali ishlatish bo'yicha choralar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu ishni quduqlarda tizimli tadqiqotlar o'tkazish va neft, gaz va suv debitlarini qayd qilish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlar natijasida olingan barcha materiallarni tizimlash va tahlil qilish uchun, quyidagi xarita va grafiklarni tuzish tavsiya qilinadi: ishlatish xaritasi, joriy ishlatish xaritasi, izobar xaritasi, gaz omili xaritasi, suvlanganlik xaritasi, alohida quduqlar bo'yicha ishlatish grafigi, uyumni ishslash grafigi.

Qatlamni ishlatish xaritasi reja - diagramma bo'lib, unga qatlamda burqilangan barcha quduqlar tushirilgan, har bir quduq uchun esa ishlatishning asosiy ko'rsatkichlarini ifodalagan aylanma diagramma tuzilgan. Har bir quduqdagi diagramma maydoni ishlatishning butun davri mobaynida qatlamdan jami neft va suv qazib chiqarishga ma'lum masshtabda to'g'ri keladi. Neft va suvning ulushi aylana maydonida sektorlar bilan tasvirlanadi. Turli ranglar yoki shtrixlar bilan quduqlarni ishlatish usullari ko'rsatilishi ham mumkin: favvora, nasosli, kompressorli. Haydovchi quduqlarda suv haydash diagrammasi tuziladi. Reja-diagrammada mos shartli belgilarda ishlatishning boshqa ko'rsatkichlarini ham ko'rsatish mumkin.

Joriy ishlatish xaritasi ishlatish xaritasidan shu bilan farqlanadi, uning diagrammalarida xaritani tuzish sanasidagi quduqlar debiti tasvirlanadi. Ishlatish xaritasi davriy ravishda kvartalda bir yoki bir yilda bir tuziladi.

Bu xaritalarda uyumning ishlatish holati, qazib chiqarish quduqlarining mahsuldorligi va haydovchi quduqlarning qabul qiluvchanligi, ekspluatatsion quduqlar fondining suvlanganlik darajasi va boshqalar yaqqol ko'rindi.

Izobar xaritasi quduqlarda qatlam bosimini o'lchash ma'lumotlari bo'yicha tuziladi va qatlam bosimining tarqalish xarakterini nomoyon qiladigan muxim xujjat hisoblanadi. Ularni har kvartalda tuzish tavsiya etiladi. Turli sanalarda tuzilgan xaritalarni solishtirish bu davr maboynida qatlamda bosimning anomal o'zgarishini aniqlash imkonini beradi.

Gaz omili xaritasi qazib chiqarish quduqlaridagi o'lchov ma'lumotlari bo'yicha izogips chiziqlarda tuziladi. Gaz omilining anomal ko'rsatkich zonalari uyumning qatlam bosimi to'yinganlik bosimidan pasaygan qismlariga to'g'ri keladi. Bunday zonalar mavjud

bo‘lganda ularni kengayishining oldini olish, keyinchalik ularni bartaraf qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi. Bunga yuqori gaz omili bilan neft olishni qisqartirish yoki quduqlarni ishlatishni to‘xtatish va bu zonalar bosimini boshqarish maqsadida qatlamga suv haydashni ko‘paytirish bilan erishiladi.

Uyumni suvlanganlik xaritasi neftdagi suv tarkibini tahlil qilish ma’lumotlari bo‘yicha tuziladi. Xaritani tuzishda suvlanganlik izogips chiziqlari bilan foizlarda amalga oshiriladi. Uyumning suvlanganlik xaritasida boshlangich va joriy tashqi va ichki suvlilik konturlari tushirilishi lozim. Xarita kvartalda bir marta tuziladi. Ikkı-uch davr oralig‘idagi xaritalarni ko‘rib chiqib, suvning nisbatan jadal harakatlanayotgan yo‘nalishini aniqlash va bu jarayonni boshqarish bo‘yicha zarur tadbirlar qabul qilish mumkin.

Quduqlarni ishlatish grafigi to‘g‘ri burchakli koordinatalar tizimida tuziladi. Ular neft yoki gaz qazib chiqarish, qatlam va quduq tubi bosimi, suvlanganlik, gaz omili va boshqa ko‘rsatgichlarni vaqt maboynida o‘zgarishini o‘zida nomoyon qiladi. (1- rasm). Uyumlarni ishlatish grafigi uyumni ishlatishning boshidan yoki qaysi bir oraliq vaqtidagi ishini tavsiflovchi jami yoki o‘rtacha kattaliklar bo‘yicha tuziladi. (2-rasm). Abstsissa o‘qida yillar va oylarda vaqtida tushiriladi, ordinata o‘qi bo‘yicha esa - jami va joriy neft va suv qazib chiqarish, qatlam bosimi, suvlanganlik, gaz omillari va boshqalar.

Ishlatishni joriy tahlili bilan neft koni boshqarmasi shug‘ullanadi. Tahlil ma’lumotlari asosida ishlatish jarayonini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Suvning har xil harakatini bartaraf qilish uchun quyidagi choralar ko‘riladi.


- 1.Suv bosgan quduqlardan suyuqlik olish miqdorini kamaytirish.
- 2.Pastki suv bosgan qatlam qismlarini izolyatsiya qilish.
- 3.Qatlamga yuboriladigan suv miqdorini chegaralash.

Gazli do‘ppili qatlamlar shunday ishga tushirilganda, gazning foydalanuvchi quduqlarga kirmasligini ta‘minlash lozim. Bunday qatlamlarda quduqlar qatlamning neftli qismigacha qaziladi. Gaz tazyiqli rejimda ishlaydigan qatlamlarda suyuqlik miqdorini o‘zgartirish orqali uyumni ishlatish boshqariladi.

Neftli uyumlarni ishlashni boshqarishda uyumdagi har bir quduq va hamma quduqlar rejimi doimiy ravishda nazorat qilinishi kerak. Buning uchun har bir quduqdagi neft, gaz, suv debiti nazorat qilinadi va uyum bo‘yicha qatlam bosimining taqsimlanishi kuzatiladi.

Suv konusining ko‘tarilishini nazorat qilish uchun maxsus nazorat qiluvchi va kuzatuvchi quduqlardan foydalaniladi. Buning uchun suv bosgan neftli quduqlardan yoki qidiruv quduqlaridan foydalaniladi.


Uyum bo‘yicha qatlama bosimini kuzatish uchun, kondagi bir nechta quduqdlarda qatlama bosimi o‘lchanadi va olingan ma’lumot asosida izobara xaritasi chiziladi. Bu xaritani tuzish uchun, ma’lum mudatda to‘xtatib qo‘yilgan quduqlarda quduq tubi bosimi o‘lchanadi. Qatlama bosimi to‘grisida olingan ma’lumot xaritada belgilanib, bosimlari bir xil bo‘lgan quduqlar liniyalar orqali biriktiriladi.



1 – rasm. Tuzilmali xarita

Neftli uyumlarni ishlash jarayonini boshqarishdan maqsad, suv-neft va gaz-neft tutash yuzasining suv va gaz konturida harakatini bir xil boshqarishdan iborat.

Suv-neft tutash yuzasining ideal harakati asosan fizik xossalariga ko‘ra bir xil jinsli to‘g‘ri geometrik formaga ega bo‘lgan qatlamlarda sodir bo‘ladi.



2 – rasm. Geologik kesim

Lekin qatlamning har xil nuqtalarida qatlam bosimi bir xil bo‘lmaydi va xaritadagi izobaralar qanaqadir formaga ega bo‘ladi.

Qatlam bosimi to‘g‘risida to‘gri ma’lumot olish uchun har 3 oyda yoki yarim yilda izobara xaritalari qaytadan chiziladi.

Izobara xaritasi yordamida quyidagi asosiy masalalar yechiladi:

- 1.O‘rtacha qatlam bosimining vaqt ichida o‘zgarishini aniqlash.
- 2.Uyumning har xil qismlarida neftlilik konturining harakat tezligi.
- 3.Qatlam bosimining keskin tushishi sababi aniqlanadi.

Kontur tashqarisidan va ichkarisdan qatlam bosimining o‘zgarishini kuzatish uchun pyezometrik quduqlrdan foydalilanadi. Bu quduqlar maxsus asbob p‘ezograflar bilan jixozlanadi va ular orqali doimiy ravishda suyuqlik satxi aniqlanadi. Bu quduqlardagi suv ustuni orqali kontur tashqarisi va ichkarisidagi qatlam bosimi aniqlanadi.

Uyumni ishlash jarayonida ba’zi bir ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi maxsus ishslash xaritalari orqali aniqlanadi. Bunda masalan vaqt ichida o‘rtacha qatlam bosimi, joriy neftni qazib olish debiti, uyumning suv bosganlik koefficienti, gaz omili, quduqlar soninig o‘zgarishi kuzatiladi.

Tekshirish uchun savollar

1. Konlarning ishini tahlil qilish va nazorat vazifalari nimalardan iborat?
2. Konlarning ishini boshqarishish masalalari.
3. Neft konturining siljishi qanday boshqarishiladi?
4. Qatlamdan olinadigan va unga haydaladigan suyuqlik miqdori qanday boshqariladi?
5. Pyezometrik quduqning vazifalari.

7. Neft qatlamini ochish va quduqni ishga tushirish

Quduqni ishga tayyorlashda bir qator tadbirdilar ko‘riladi va natijada quduqning berilgan mahsuldorlik bilan ishlashi ta’minlanadi.

Bu tadbirdarga mahsuldor qatlamini ochish bo‘yicha bajariladigan ishlar, quduqning ostki va ustki qismini tegishli uskunalar bilan jihozlash, quduq ostki qismiga filtr o‘rnatish va qatlamdan quduq tomoniga suyuqlik harakatini ta’minlash ishlari kiritiladi.

Mahsuldor qatlamni ochish yakunlovchi bosqichdagi asosiy ishdardan biri hisoblanadi. Sifatsiz ochilgan qatlam quduqni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Bu masalalarni o‘rganishda har xil geologik va texnologik sharoitda mahsuldor qatlamni ochish texnikasi va texnologiyaga ahamiyat bering.

Geologik sharoitlar hamda quduqning strukturada joylashgan joyda va bajaradigan vazifasiga qarab quduq ostki qismi va filtrlarning turli konstruksiyalari ishlatalishi mumkin. Tanlangan konstruksiya qatlamdan quduqqa tomon nefting muayyan oqimini ta’minlashi, bunda vaqtidan ilgari suv yoki gaz harakatini cheklash, gidravlik qarshilik hosil qilinishi va qatlamdan suyuqlik bilan birgalikda harakat qilayotgan qum zarrachalarini filtrda saqlab qolinishini ta’minlashi kerak.

Filtrlarning konstruktiv xususiyatlari, ularni tayyorlash usullari, ekspluatasion kolonnani perforatsiya qilish usullari darsliklarda yaxshi yoritilgan. Bu bo‘limni o‘rganishda perforatsiya usullarining samaradorligiga ahamiyat berish kerak. Suv va qum aralashmasi oqimi ta’sirida perforatsiya qilish usulini chuqurroq o‘rganish zarur. Mahsuldor qatlamni perforatsiyalashda va quduqni o‘zlashtirishda avariya holatidagi favvoraning oldini olib, quduq ishini boshqarish rejimi ta’minlanishi kerak. Qatlamdan quduqqa tomon oqim hosil etish bir necha usulda bajariladi. Bu jarayon quduqning va qatlamning geologik-texnologik xususiyatlariga bog‘liq.

Quduqdagi suyuqlik sathini kamaytirish yoki bu suyuqlik solishtirma og'irligini kamaytirish natijasida quduq ostki qismining bosimi kamaytiriladi.

Bu jarayonlarning bajarilish texnologiyasi va unda ishlatiladigan uskunalarни mukammal o'rganing. Shuningdek, bu ishlar bajarilishida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya etish zarurligini o'zlashtirib oling.

Tekshirish uchun savollar

1. Qatlamni ochish jarayoniga qanday talablar qo'yiladi?
2. Qatlamning sifatsiz ochilishi qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Ishlatiladigan filtrlarni izohlab bering.
4. Perforatorlarning vazifasi, turlari va ishlash prinsipi.
5. Suv-qum aralashmasi oqimi ta'sirida perforatsiyalash texnologiyasi.
6. Quduqlarni o'zlashtirishning qanday usullarini bilasiz?
7. Quduqni ishga tushirish asoslari.
8. Past bosimli qatlamlarda quduqlarni o'zlashtirish xususiyatlari.
9. Quduqlarni o'zlashtirishda ochiq, favvora bo'lishining oldini olish borasidagi tadbirlar nimadan iborat?
10. Suv yoki gaz haydaladigan quduqlarni o'zlashtirilish xususiyatlari.

8. Quduqdarning tubiga ta'sir etish xususiyatlari

Hozirgi paytda quduq tubiga ta'sir etish maqsadida quyidagi asosiy usullar qo'llanidadi:

1. Kislotali usulda ishlash.
2. Issiqlik-kimyoviy va issiq kislota bilan ishlash.
3. Quduqlarni torpedalash.
4. Quduq tubini isitgichlar bilan isitish.
5. Qatlamni gidravlik usulda yorish.
6. Quduqni tebranish usullari bilan ishlatish.
7. Portlovchi gazlar bilan qatlamni yorish.
6. Quduq ostki qismiga sirt-faol moddalari bilan ishlov berish.

Bu usullar tog' jinslariga fizik, kimyoviy va mexanik ta'sir etishga asoslangan. Quduq ostki qismiga u yoki bu usul bilan ta'sir etilganda, qatlamning o'tkazuvchanligi oshadi, g'ovaklar asfalten-mum va parafindan tozalanadi va suyuqliknинг quduqqaga oqishidagi gidravlik

qarshiliklar kamayadi o‘zgarishlar quduq o‘qidan uzoq bo‘lmagan masofadagina hosil bo‘ladi.

Quduqlarni ishlatish jarayonida vaqt o‘tishi bilan bu quduqlarning mahsulot miqdori kamayadi.

Ma'lumki, quduqning mahsulot miqdori asosan tog‘ jinslarining o‘tkazuvchanligiga bog‘liq.

$$qn=2\pi\cdot k\cdot hP_{qat}-P_{qud.tubi}\cdot \mu ln R_k-R_{qud}-C_1+C_2$$

bu yerda:

q_n - quduqning mahsulot miqdori;

k - o‘tkazuvchanlik koeffitsienti;

h - qatlam qalinligi;

P_{qat} - qatlam bosimi;

$P_{qud.tubi}$ -quduq tubi bosimi;

R_k – ta’min konturi radiusi;

R_{qud} - quduq radiusi;

$C_1 C_2$ - quduqning gidrodinamik nomukammallik koeffitsienti.

Tog‘ jinslarining tabiiy o‘tkazuvchanligi ham turli sabablarga ko‘ra vaqt o‘tishi bilan kamayadi.

Neft va gaz quduqlarining ishlatilishi jarayonida quduq tubi qismi o‘tkazuvchanligi parafin, mum va loyli zarrachalar tiqilib qolishi natijasida kamayadi.

Quduq mahsulorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri tog‘ jinslari o‘tkazuvchanligini oshirishdan iborat.

O‘tkazuvchanlikni oshirish maqsadida kimeviy, mexanik, issiqlik va fizikaviy usullar qo‘llaniladi.

Kimyoviy usullar past o‘tkazuvchan karbonat tog‘ jinslarida yaxshi natija beradi. Bu usul, shuningdek tarkibida karbonat qismlari bo‘lgan tsementlashgan qumtoshlarda ham muvaffaqiyatli o‘tqazilishi mumkin.

Mexanik usullar odatda zich tog‘ jinslarida ularning darzliligini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Issiqlik usulari g‘ovaklik kanallari devorini parafin va mumdan tozalash uchun va kimyoviy usullarni jadallashtirish uchun ishlatiladi.

Fizikaviy usullar quduq tubidan qoldiq suv va mayda dispersli zarrachalardan tozalash uchun qo‘llaniladi.

Bu bo‘limni o‘rganishda har bir usulning ishlatilish doirasini o‘rganing, bu usullarning texnologiyasi, unda ishlatiladigan uskunalar,

kimyoviy reagentlar va jarayonni o‘tkazishdagi hisoblashlar, ularning texnik-iqtisodiy samaradorligi oshirishga ahamiyat bering.

Shuningdek, har bir ta’sir etish usulida texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalarini ham o‘rganing.

Tekshirish uchun savollar

1. Quduqlarni kislota bilan ishlash nimaga asoslangan?
2. Kislota tog‘ jinsiga qanday ta’sir etadi?
3. Ishlatiladigan kislota eritmasi qanday tayyorlanadi? Bunda qanday kimyoviy reagentlar ishlatiladi?
4. Ingibitorlarning ishlatilish sababi.
5. Kislota bilan ishlashdagi hisoblashlar qanday olib boriladi?
6. Kislota bilan ta’sir etishda qanday uskunalar ishlatiladi?
7. Kislota va issiq kislota bilan ta’sir etishining farqi nimada?
8. Quduqlar qaysi hollarda torpedalanadi?
9. Qatlamni gidravlik yorish nimaga asoslangan?
10. Gidravlik yorishda ishlatiladigan suyuqliklar qanday talablarga javob berishi kerak?
11. Qatlamni gidravlik yorishda qanday uskunalar ishlatiladi?
12. Gidravlik yorish texnologiyasini tushuntiring.
13. Gidravlik yorishning asosiy ko‘rsatkichlari qanday aniqlanadi?
14. Quduq ostki qismiga issiqlik bilan ta’sir etish nimaga asoslangan?
15. Issiqlik usullari bilan ta’sir etishda qanday uskunalar ishlatiladi.
16. Elektr issiqligi bilan ta’sir etish jarayoni qanday hisoblanadi?
17. Tebranish orqali ta’sir etish nimaga asoslangan?
18. Quduq ostki qismiga ta’sir etish usullarining samaradorligi qanday aniqlanadi?

9. Gaz-suyuqlik ko‘targichining nazariy asoslari

Vertikal quvurda gaz-suyuqlik aralashmasi harakatining nazariyasini quduqlarni favvora yoki gazlift usulida ishlatishning umumiy asosi hisoblanadi. Bu nazariyaning ayrim masalalari quduqlarni chuqurlik nasoslari bilan ishlatishda ham qo‘llaniladi.

Nazariya asoslarini bilish quduqlarning favvora va gazlift usulida ishlatishidagi qator masalalarni hal etishda kerak bo‘ladi. Bu masalalarga ko‘targich uskunalarini ko‘plab, har xil sharoitda

ko‘targichning ishlash rejimini hisoblash, suyuqlikni ko‘tarilishi uchun qo‘shimcha energiyani sarflanishi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, juda ko‘p tadqiqotdar o‘tkazilishiga qaramasdan, vertikal quvurda ikki va uch fazali suyuqliklar harakatining nazariyasi juda chuqur o‘rganilmagan. Olingan natijalar asosan eksperimental tadqiqotlarga asoslangan.

Bu bo‘limni o‘rganishda ishlayotgan quduqda energiya balansiga mos ravishda quduqning favvora, gazlift yoki nasos usulida ishlash sharoitidan boshlash kerak.

Suyuqlikning quduqdan ko‘tarilishi kengaygan gaz energiyasi yoki gidrostatik bosim ta’sirida bajaridadi.

Suyuqlik gaz aralashmasining harakati quyidagi parametrlar bilan belgilanadi: gaz soni; gazning xajmi yoki massasi; bir yillik sarflanishi; aralashmadagi xaqiqiy gaz miqdori; aralash yoki alohida fazalarning zichligi; fazalarning nisbiy va haqiqiy tezligi; aralashma tezligi.

Ayrim hollarda gaz-suyuqlik aralashmasining harakati Eyler, Reynolds, Grud, Veber va boshqalarning ulchovsiz moslashtirilgan tenglamalari orqali aniqlanadi.

Gaz-suyuqlik aralashmasining harakatida bir faza suyuqlik harakatidagi ishqalanish kuchini yengish uchun bosim yo‘qotishidan tashqari, fazalar tezligi har xilligi natijasida sirpanish kuchini yengish uchun ham bosim yo‘qotiladi. U yo‘qotishlarni aniq bilish murakkab masala shuning uchun bu jarayon asosan eksperimental moslamalarda o‘rganiladi.

Kompressor ko‘targichlarni hisoblash akademik A.L.Krilov tadqiqotlariga asoslangan bo‘lib, bunda eksperimental moslama quyidagi sharoitda o‘rganiladi:

1. Gaz ideal holda deb qabul qilinadi va quvurda gazning kengayishi Boyle-Mariott qonuniga bo‘ysinadi;
2. Quvurda bosim chiziqli qonunga asosan taqsimlanadi;
3. Gaz-suyuqlik aralashmasining harakati "chetka" usulida.

Shuni ham hisobga olish kerakki, tadqiqotlar uzun bo‘limgan quvurda qovushqoqligi 3-5 mPa bo‘lgan suyuqlik sharoiti uchun olib borilgan.

A.L.Krilov tenglamalari gaz-suyuqlik ko‘targichlarning maksimal va optimal mahsulotga mos ravishda ikki rejimdagi parametrlarini hisoblash imkonini beradi.

Bu bobni o‘rganishda gaz-suyuqlik ko‘targichlarining boshqa tadqiqotchilar tomondan o‘rganadigan ishlari natijasi bilan ham tanishib chiqing.

Tekshirish uchun savollar

1. Ishlayotgan quduq sharoiti uchun energiya balansini yozib bering.
2. Gaz-suyuqlik aralashmasi harakatining qanday strukturasi mavjud?
3. Ko‘targichning foydali ish koeffitsienti qanday aniqlanadi va u nimalarga bog‘liq?
4. Suyuqlikning dinamik sathiga absolyut va nisbiy cho‘kishi deganda nimani tushunasiz?
5. Gaz-suyuqlik aralashmasining harakati qaysi parametrlar bilan belgilanadi?
6. Ishqalanish va sirpanishga qarshi bosim yo‘qotilishi nimalarga bog‘liq?
7. Suyuqlik sarflanshi va gaz sarflanishi orasidagi bog‘lanishni belgilaydigan grafikni chizing va tushuntirib bering.
8. A.L. Krilov tenglamalari qaysi sharoitlar uchun qabul qilingan?
9. A.L. Krilov tenglamalarini yozing va izohlab bering.
10. Gaz-suyuqlik ko‘targichning foydali ish koeffitsientini qanday oshirish mumkin?

10. Quduqlarni favvora usulida ishlatish

Kompressor ko‘targichga nisbatan favvora ko‘targichda gaz-suyuqlik aralashmasi harakatining ancha farqi bor.

Garchi bu ikkala usulda ham suyuqlikni yuqoriga ko‘tarishda gaz kuchidan foydalanilsa ham, favvora usulida gaz neft bilan birgalikda qatlamdan oqib, quduq uzunligi bo‘ylab neftdan ajrala boshlaydi.

Quduq ostki bosimining ma’lum qiymatlarida favvora usuli mavjud bo‘lishi mumkin. Bosim kamayishi bilan qatlamdan suyuqlik va gaz harakati ortishiga qaramasdan favvora sekin-asta so‘nadi. Natijada eng qulay va arzon favvora usulidan mexanizatsiyalashgan usulga o‘tish zarurati tug‘iladi.

Quduqni to‘ldirgan suyuqlik sathining bosimi qatlam bosimidan past bo‘lsa va quduq tubi loylanib ifloslanmagan bo‘lsa, bu quduq ustidan

suyuqlik oqa boshlaydi. Bu jarayon tabiiy energiya ta'sirida vujudga kelib, «favvoralanish» deb ataladi.

Konning ishlatalish usuliga mos ravishda favvoralanish hidrostatik tazyiq yoki kengayib boradigan gaz energiyasi ta'sirida, ba'zan esa, bu ikkala kuchning birgalikdagi ta'sirida yuzaga keladi.

Favvora qudug'ida 1 t suyuqlikni ko'tarish uchun sarflanadigan energiya miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$W_1 = 10^4 (P_{qud.tubi.} - P_u / \gamma - G_0 \ln P_{qud.tubi.} / P_u + A_1)$$

bu yerda: G_0 – 1 tonna suyuqlik bilan birga erkin holda keladigan gazning hajmiy miqdori, m^3/t ; A_1 – bosim $P_{qud.tubi}$ qiymatidan P_0 ’ qiymatigacha pasayishi natijasida neftdan ajralgan gaz energiyasi.

Hidrostatik tazyiq yetarli bo'lмаган va quduq tubiga gaz yetib kelmagan holatlarda neftni ko'tarish uchun yuqoridan gaz berishga zarurat tug'iladi. Bu holda 1 tonna neftni ko'tarishga sarflanadigan energiya quyidagicha hisoblanadi:

$$W_2 = 10^4 (P_{qud.tubi.} - P_u / \gamma + P_0 \ln P_{qud.tubi.} / P_u)$$

bu yerda: P_0 – yuqoridan haydaladigan gazning nisbiy sarflanishi m^3/t .
Quduq favvoralanishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$W_1 > W_2$$

yoki

$$G_0 \ln P_{qud.tubi.} / P_u + A_1 > P_0 \ln P_{qud.tubi.} / P_u$$

bu yerda: A – 1 t suyuqlikni ko'tarishga sarflanadigan va bosimni $P_{qud.tubi}$ dan P_u gacha pasaytirishda aralashmadan ajralib chiqadigan gaz energiyasi.

P_0 ning qiymati ko'targichning diametri va uzunligi, $P_{qud.tub}$ va P_u bosimlari hamda suyuqlikning ko'tarilish sharoitlariga bog'liq.

Gazning nisbiy sarflanishining minimal qiymati ko'targichning optimal rejimida ishlashda va uning suyuqlik sathidan maksimal chiqishida belgilanadi.

Neft konlarini ishlashda neftning gazga to'yinganligi ($P_{to'y.}$) bosimi quduq tubi bosimidan past bo'lsa, u holda gaz-neft aralashmasi

ko‘targichning butun uzunligi bo‘ylab emas, balki quyidagicha hisoblanadigan L chuqurlikdagina yuzaga keladi:

$$L = N - 10(P_{qud.tubi} - P_{to'y}) / \gamma;$$

Quduqning favvoralanishida uning tubidagi minimal bosim quyidagicha hisoblanadi:

$$P_{qud.tubi} = (N - L) \gamma / 10 + P_{to'y}.$$

Ishlatiladigan quvurlarning hammasiga bu quduqlarni o‘zlashtirishdan oldin ularga favvora yoki nasos-kompressor quvurlari tushiriladi va ular «ko‘targichlar» deb ataladi.

Mahsulotning favvora quvurlari orqali olinishida quduqni ekspluatatsion quvur orqali ishlatishga nisbatan qatlam gazining energiyasi oqilona sarflanadi.

Ko‘targich quvur orqali quduq favvoralanishida gaz omili kamayadi va natijada favvora muddati oshadi. Quduqdagi oqim tezligini boshqarish va qatlamga teskari bosim uyushtirishning eng qulay usuli – favvora quvurlarini ishlatishdir. Favvora quvurlari ishlatilganda oqim tezligi oshirilishi natijasida qatlamdan suyuqlik aralashmasi bilan olib chiqiladigan qum zarrachalari yer yuzasiga ko‘tariladi va quduqda qum tiqini paydo bo‘lishining oldi olinadi.

Favvora quvurlari qo‘llanilishida ularning diametrini tanlash katta ahamiyatga ega. Quduqning optimal mahsulotini ta’minlovchi favvora quvurlarining diametri akad A.P.Krilov tenglamasi yordamida hisoblanadi.

$$d=0,074L\cdot\gamma P_{bosh}-P_u3Q\cdot LL\cdot\gamma-10P_{bosh}-P_u$$

bu yerda: L – favvora quvurlari uzunligi; P_{bosh} – favvoralanish oxirida favvora quvurlari kolonnasi boshmog‘idagi bosim; P_u – quduq ustidagi bosim; Q – favvoralanish oxirida quduq mahsuloti.

Hisobdagagi diametr standart diametrga mos kelmasa, u holda pog‘onali quvurlar kolonnasi qabul qilinadi. Unda yuqori pog‘ona hisobidagiga eng yaqin katta diametrli (d_2) quvur, pastki pog‘ona hisobidagiga eng yaqin kichiq diametrli (d_1) quvur qabul qilinadi va yuqori pog‘ona uzunligi l_2 quyidagicha hisoblanadi:

$$l_2 = L \cdot d - d_1 / d_2 - d_1;$$

Hisoblangan diametrli quvurning maksimal suyuqlik o'tkazish qobiliyati quyidagicha hisoblanadi:

$$Q_{\max} = 2500 \cdot d^2 (P_{\text{bosh}} - P_u)^{0,5} / \gamma^{0,5} \cdot L^{1,5};$$

bu yerda: Q_{\max} – ko'targichning maksimal suyuqlik o'tkazish qibiliyati, t/sut; d – ko'targich diametri, dyuymda; P_{bosh} – favvora quvurlari boshmog'idagi bosim; P_y – quduq ustidagi bosim, at; γ – suyuqlikning nisbiy solishtirma og'irligi; L – ko'targich uzunligi, m;

Favvora quduqlarining ustki uskunalari quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi.

1. Mustahkamlovchi quvur va favvora quvurlari oralig'idagi halqani zichlashtirish (germetizatsiyalash).
2. Gaz-suyuqlik aralashmasini olinish tomoniga yo'naltirish.
3. Quduq ustida teskari bosim uyuştirish.

Quduq ustki uskunalari kolonna va quvur boshchasi hamda favvora archasidan iborat. Alovida qismlar odatda flanetsli ulanadi.

Kolonna boshchasi quduqqa tushirilgan mustahkamlovchi quvurlar oralig'ini mustahkamlash, zichlash vazifasini bajaradi. Quduq konstruktsiyasiga muvofiq kolonna boshchasingin har xil turlari qabul qilinadi.

Kolonna boshchasinga quvur boshchasi ulanib, uning vazifasi nasos-kompressor quvurlarini ushlab turish va favvora quvurlari bilan mustahkamlovchi quvur oralig'ini zichlashdan iborat.

Kolonna boshchasinga bir qator ochqich-yopqich, troynik va krestovinalardan iborat favvora archasi ulanadi.

Favvora archasi quduq ishini nazorat qilish va boshqarish, favvora oqimini tegishli yo'naliш orqali gaz ajratkichga uzatish va zarur hollarda quduqni to'xtatish uchun xizmat qiladi.

Neft bilan birga chiqadigan qum ta'sirida emirilishga qarshi favvora archasining detallari mahsus xrom-molibdenli po'latdan tayyorланади.

Sanoatda chiqariladigan favvora armaturalari quyidagi ko'rsatkichlari bilan farq qiladi:

1. Ishchi bosimiga qarab (40,75,125,200,300,500, at).
2. Alovida qismlarining ulanishiga qarab (flanetsli yoki kertikli).
3. Quduqqa tushiriladigan quvurlar qatoriga qarab (bir yoki ikki qatorli).

4. Konstruktsiyasi bo‘yicha (troynikli yoki krestovikli).
 5. Kesim yuzasiga qarab (100 mm va 63 mm). Favvora oqimida qum yuqori darajada bo‘lsa, krestovikli armatura ishlangani maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Armaturani to‘g‘ri tanlash ham texnik, ham iqtisodiy ahamiyatga ega.
- Favvora armaturasi yig‘ilib, o‘rnatib bo‘lingandan so‘ng, albatta, opressovka qilinadi, ya’ni mustahkamlikka (zichlikka, germetiklikka) tekshiriladi.

Tekshirish uchun savollar

1. Favvora va kompressor usullarining o‘zaro o‘xhashligi va farqi nimadan iborat?
2. Troynikli va krestovikli armaturalarning ishlatilish sharoitini tushuntirib bering.
3. Favvora qudug‘ining mahsuloti qanday o‘lchanadi?
4. Parafindan tozalaydigan moslama qanday ishlaydi?
5. Favvora quduqlari tadqiqotining xususiyatlari nimadardan iborat?

11. Quduqlarni gazlift yoki kompressor usulida ishlatish

Quduq mahsulotini qatlamdan yer yuzasigacha ko‘tarish uchun qatlam energiyasi etarli bo‘lmasa favvoralanish to‘xtaydi. quduqdagi ko‘targich orqali quduqlarning boshmog‘iga sun’iy tarzda gaz yoki havo haydab favvoralanishni davom ettirish mumkin.


Gaz yoki havoni kerakli bosimgacha siqib berish talab qilingani sababli komrressor ishlatiladi va quduqning bu tarzda ishlatilishi «komrressor usuli» deb ataladi.

Gaz yoki havo ko‘targichining prinsipial ishlashi favvora qudug‘ida suyuqlikning kengayib boradigan gaz energiyasi ta’sirida favvoralanish bilan bir xildir.

Ishchi agenti sifatida gaz ishlatilsa bu ko‘targich «gazlift», havo ishlatilganda esa «erlift» deb ataladi.

Ayrim hollarda ko‘targichning ishini ta’minalash uchun yuqori bosimli uyumning gazi ishlatilsa, kompressorga zarurat tug‘ilmaydi va bu holat «komrressorsiz gazlift» deb ataladi.

Kompressor usulida quduqlarni ishlatalish uchun ular bir qatorli yoki ikki qatorli ko‘targichlar bilan jihozlanadi.



3 – rasm. Kompressor quduqlarining ishlash sxemasi.

- a- ishchi agentni haydashdan oldin suyuqlik sathi;
- b- suyuqlik quvur ortgi qismida NKQ larning boshmog‘igacha haydalgan;
- c- quduq orqali aralashma oqimi;

Bir qatorli ko‘targichning ishlash tarzi 3 - rasmda ko‘rsatilgan. Quduq ishga tushirilguncha suyuqlik sathi mustahkamlovchi quvur va favvora quvurlarida bir xil balandlikka ega (statik sath) bo‘ladi.

- a - quduq ishga tushirilishdan oldin statik sath;
- b - quvur ortki qismida suyuqlik nasos komrressor quvurlarining boshmog‘igacha siqib tushirilgan;
- c - ko‘targich quvurlar orqali aralashma oqimi.

Rasmdan ko‘rinishicha agar mustahkamlovchi quvur va nasos-kompressor quvurlari oraligiga (halqaga) komrressor yordamida ishchi agenti haydalsa, quvur ortki qismida sath pasayib, nasos-komrressor quvurida esa ko‘tariladi. Shu tarzda quvur ortki qismida sath NKQ boshmog‘igacha pasayadi va haydaladigan havo yoki gaz boshmoq orqali NKQ ga o‘tib suyuqlikda eriy boshlaydi. Gaz yoki xavoning muntazam berilib turilishi natijasida aralashma zichligi pasaya boradi va bu aralashma yer yuzasigacha ko‘tarilib, quduqdan oqa boshlaydi.

Ko‘targich quvurda suyuqlik sathining ko‘tarilishi nafaqat berilayotgan ishchi agentiga, balki bu quvurlarning suyuqlikka cho‘kish chuqurligiga ham bog‘liq.

Suyuqlik sathining ko‘tarilish balandligi, Shuning dek ko‘targich diametriga ham bog‘liq. Ishchi agentining bir xil sarflanishida kichik diametrli quvurda suyuqlik ko‘tarilish sathi balandroq bo‘ladi.

Sath ko‘tarilishiga suyuqlikning qovushqoqligi ham ta’sir etadi. Masalan, suvga nisbatan neftning sathi balandroq bo‘ladi, chunki neftning qovushqoqligi suvdan pastroq.

Demak, komrressor ko‘targichining ishlash prinsipi ko‘targich quvurlardagi suyuqlik sharoitini bashoratlash va uning o‘rtacha solishtirma og‘irligini pasaytirishni mo‘ljallashdan iborat.

Ikki qatorli ko‘targichlarda birinchi qator quvurlari (katta diametrli quduqqa ishchi agentini haydashga va ikkinchi qator quvurlari (kichik diametrli) suyuqlikni ko‘tarishga xizmat qiladi.

Kompressor ko‘targichni hisoblashda quyidagi o‘zgaruvchan qiymatlar aniqlanadi;

- cho‘kish chuqurligi, suyuqlikning ko‘tarilish sathi, cho‘kish foizi, ko‘targich quvurlari diametri;
- haydaladigan ishchi agentni hajmi, ko‘tariladigan suyuqlik miqdori.

Quduq ishlayotganda ko‘targich boshmog‘idagi bosimga teng ravishda gazsizlangan suyuqlik balandligi cho‘kish chuqurligiga teng.

$$h = 10 \cdot P_{bosh} / \gamma$$

bu yerda: P_{bosh} - ko‘targich quvurlarning boshmog‘idagi bosim, at.

h - ko‘targichning cho‘kish chuqurligi, m.

Suyuqlikni ko‘tarilish balandligi H_0 quduqdagi suyuqlik sathidan quduq ustigacha bo‘lgan masofa bilan o‘lchanadi.

$$H_0 = L - h$$

bu yerda L - ko‘targich balandligi, m.

Odatda gazlift quduqlarini ishga tushirish uchun ishchi bosimini ta’minalash komrressorning yuqori kuchlanishini talab qiladi va ba’zan uni ta’minalash qiyin. Shuning uchun imkonim boricha quduqni ishga tushirish bosimini pasaytirish choralarini ko‘rish kerak.

Ishga tushirish bosimini pasaytirishning quyidagi usullari mavjud;

1. Qatlama suyuqlik haydash usuli. Bu usul suyuqlikni yaxshi yutadigan qatlamlarda muvaffaqqiyatli qo‘llaniladi. Bunda ko‘targich quvurlar va halqa qismiga bir vaqtning o‘zida katta bosim ta’sirida ishchi agenti haydalib, quduqdagi hamma ochqich-yopqichlar bir necha

soatga berkitilib qo‘yiladi. Bu vaqt mobaynida suyuqlikning bir qismi qatlamga o‘tadi va quduqda suyuqlik sathi pasayadi. Ishchi agentini ikkinchi marta haydaganda halqa qismidan suyuqlikn ni ko‘targich quvurlarga siqib, quduqni tez ishga tushirish imkoniyati tug‘iladi.

2. Ko‘targich quvurlarini uzaytirish usuli. Bu usulni mahsuldorlik koeffisienti past bo‘lgan quduqlarda qo‘llash tavsiya etiladi.

3. Markaziy sistemadan halqali sistemaga o‘tish. Bu usulni qo‘llashda dastavval ko‘targich quvurlar orqali ishchi agentini haydar halqa qismidan suyuqlik aralashmasi olinadi. quduqdan bir qism suyuqlik olingandan so‘ng ko‘targich markaziy sistemadan halqali sistemaga o‘tkaziladi, ya’ni halqa qismiga ishchi agenti haydalib ko‘targich quvurlar orqali suyuqlik aralashmasi olinadi.

4. Ko‘targich quvurlarni ma’lum joylarda teshib qo‘yish. Ma’lumki, ishchi agentini haydash jarayonida bu agent ko‘targich quvurlarning boshmog‘ga yetmaguncha undagi suyuqlik gazlashmaydi. Agar ko‘targich quvurning boshmogidan yuqoriqoq bir yoki bir necha joyida mahsus teshiklar qoldirilsa, halqa qismida suyuqlik sathi kamaygani sari bu teshiklar orqali ishchi agenti ko‘targich quvurlarga o‘tib suyuqlikn i tez gazlashtira boshlaydi va quduqni ishga tushirish tezlashib, ishchi bosimini pasaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Lekin quduq muntazam ishlay boshlagandan so‘ng, maxsus teshiklar orqali ko‘targichga o‘tadigan ishchi agentining sarflanishini tejash maqsadida teshiklar o‘rnatalgan joylarda maxsus ishga tushirish klapanlarini o‘rnatish maqsadga muvofiqdir.

Tekshirish uchun savollar

1. Har xil konstruksiyali ko‘targichlarning farqi nimadan iborat?
2. Har xil tizimdagи ko‘targichlarning ishga tushirilish bosimini hisoblash qanday amalga oshiriladi.
3. Ishga tushirish bosimini kamaytirishning qanday usullarini bilasiz?
4. Ishga tushiruvchi klapanlarning ishlash sharoiti qanday bo‘ladi?
5. Kompressor usulida ishlaydigan quduqlarni tadqiqot etish xususiyatlarini tavsiflab bering.

12. Quduqdarni chuqurlik nasoslari yordamida ishlatalish

Hozirgi davrda mavjud neft quduqlarining 80% dan ortig'i chuqurlik nasosi yordamida ishlataladi.

Bu turdag'i nasoslar chuqurligi 3000 m va undan chuqurroq bo'lgan quduqlardan bir necha kilogramdan yuzlab tonnagacha mahsulot olishni ta'minlaydi.

Chuqurlik nasosi uskunalarini quyidagi ko'rsatkichlariga qarab tasniflanadi:

1. Chuqurlik nasosini ishga tushirish uchun yuqorida energiya berish usuliga qarab.

2. Chuqurlik nasosi va butun uskunaning ishlash prinsipi hamda konstruktiv xususiyatiga qarab.

Amaliyotda quyidagi turdag'i chuqurlik nasoslari uskunalarini uchraydi:

1. Shtangali uskunalar. Bu uskunalarning balansirli va balansirsiz turlari mavjud. Balansirli uskunalar mexanik va gidravlik harakatda bo'lishi mumkin. Bu uskunalarda odatdagi va quvursimon shtangalar ishlataladi.

2. Shtangasiz chuqurlik nasoslari uskunalar:

a) cho'ktirma markazdan qochma elektr nasoslar;

b) gidravlik va elektr yuritkichli cho'ktirma porshenli nasoslar;

v) maxsus vibratsion, membranalni va elektromagnitli nasoslar.

3. Bir necha shtangali chuqurlik nasos uskunalarini ishga tushirish uchun bir dvigatelli guruhli yuritgichlar.

Shtangali chuqurlik nasosi uskunasining ishlash prinsipi shundan iborat, bu nasoslar tebratma dastgohdagi yuritgich ishi ta'sirida krivoship mexanizmining aylanma ilgarilanma harakati natijasida balansir orqali Shtangalar kolonnasi nasos plunjeringini harakatga keltiradi.

Shtangali chuqurlik nasoslari konstruktsiyasiga muvofiq tashqi va suqma turlarga bo'linadi.

Plunjer (porshen) turiga ko'ra nasoslar metalli va manjetli ko'rinishga ega.

Suqma yoki quvurli nasosning tsilindri to'g'ridan-to'g'ri nasos quvurlariga ulanib, ular bilan birga quduqqa tushiriladi, uning plunjeringi esa nasos shtangalari yordamida ko'tariladi.

Tashqi turdag'i nasosda esa silindr va, plunjer birga nasos shtangalari yordamida tushirilib, nasos oldindan tushirilgan maxsus qulfli tayanchga o'rnatiladi.

U yoki bu turdag'i nasoslar ularning texnik ekspluatatsion ko'rsatkichlariga qarab, quduq xarakteristikasiga va chuqurligiga muvofiq ishlataladi.

Neft beruvchi quduqlarni shtangasiz nasoslar yordamida ham ishlatalish mumkin. Shtangasiz nasoslarni harakatga keltiruvchi energiya sifatida elektr energiyasi, gidravlik energiyalardan foydalaniladi.

Shtangasiz nasoslarga cho'ktirma markazdan qochma elektronasos (CHMQE), gidroporshenli nasos, vintli nasos va vibratsion nasoslar kiradi.

CHMQE bilan jihozlangan neft quduqlaridagi asbob-uskunalar yer osti va yer usti jihozlaridan iborat bo'ladi.

Kompensator, elektroyuritgich, protektor, nasos suzgichi, markazdan qochma nasos yer ustida bir butun komplekt qilib yig'iladi va quduqqa NKQlarda tushiriladi. Ana shu komplekt jihoz quduqqa tushirilish davomida elektr uzatuvchi kabel ham baravariga NKQlarga mustahkam qilib mahkamlangan holda tushirilib boriladi.

Shunga ahamiyat berish kerakki, nasos usulida ishlaydigan quduqlarni nazorat qilishning asosiy yo'llaridan biri dinamometrlashdir.

Chuqurlik nasoslari usulida ishlaydigan quduqlar va shuningdek shtangasiz nasos moslamalari, ya'ni elektr nasoslari ham qo'llaniladi. Bunda eng nozik zveno, shtangalar kollonasidan voz kechilib, dvigatel quduqning ostki qismida joylashtiriladi. Elektr nasosdarning mahsulot berish qobiliyati ancha yuqori. Bu nasoslар har xil diametrli va har xil chuqurlikdagi quduqlarda ishlatilishi mumkin. Shuningdek bunday nasoslarni joylashtirish juda oson va ularning ta'miri orasidagi muddat ancha uzaytiriladi.

Tekshirish uchun savollar

1. Konlarda qaysi turdagи chuqurlik nasoslari ishlatiladi?
2. Nasosning to'ldirilish koeffitsienti nima?
3. Chuqurlik nasoslari moslamalarining mahsuloti qanday hisoblanadi?
4. Nasosning "zararli" maydoni nimadan iborat?
5. Shtanga uzilganida dinamogramma qanday ko'rinishga ega bo'ladi?
6. Gaz va qumli yakorlarning tuzilishi va ishlash xususiyatlari qanday?
7. Elektr nasoslarining ishlash prinsipi qanday bo'ladi?

13. Quduqlarni ishlatishda uchraydigan asoratlarga qarshi kurashish. Yer osti va kapital ta'mir turlari.

Quduqni yer tubida ta'mirlash deb, yer tubi jihozlari va quduq o'qining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan ogohlantirish hamda bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ishlar majmuasiga aytildi.

Quduqda ta'mirlash ishlarini bajarish vaqtida mahsulot berilmaydi. Shu sababli quduqning turib qolgan davri ishlatish koeffitsienti K_e qiymatida aks ettiriladi, ya'ni quduqning amaliy ishlash vaqtini uning umumiy oylik, kvartal, yillik kalendar vaqt bo'yicha nisbati bilan aniqlanadi. Ishlatish koeffitsienti o'rtacha 0,94–0,98 ni tashkil qiladi.

Quduqni ikki: joriy va kapital ta'mirlashga ajratish mumkin. **Joriy ta'mirlash** ogohlantiruvchi-reja (yoki profilaktika) va tiklovchi turlarga ajratiladi.

Quduqlarni ta'mirlashning ogohlantiruvchi-reja – bu ta'mirlash quduq tubi jihozlarining va quduqning o'zi noto'g'ri ishlashi natijasida yuzaga keladigan quduqlarni ishlatishning berilgan texnologik rejimlaridan og'ganligini ogohlantirish maqsadida bajariladi. Ogohlantiruvchi-reja bo'yicha ta'mirlash oldindan rejalashtiriladi va ta'mirlash grafigi asosida amalga oshiriladi.

Quduqlarning tiklovchi ta'miri – bu ta'mirlash quduqlarni ishlatishning texnologik rejimining kutilmaganda birdan yomonlashishi yoki nasosning ishdan chiqishi, shtanga kolonnasining buzilishi va h.k.lar natijasida yuzaga kelishi natijasida amalga oshiriladi.

Quduqni ishlatishning ta'mirlashlararo vaqtি (MRP) – bu quduqlarni avvalgi ta'mirlashdan keyingi ta'mirlashgacha davom etgan amaliy ishlatilish muddati. MRP ma'lum vaqt (kvartal, yarim yillik) davomida ishlatilgan quduq-kun sonini ushbu quduqda bir vaqtning o'zida o'tkazilgan ta'mirlash ishlariga nisbati orqali aniqlanadi.

Quduqlarni ishlatish koeffitsientini oshiruvchi asosiy usullardan biri (neft qazib chiqarishda bu qiymat turlicha): quduqlarni ta'mirlash muddatlarini qisqartirish; quduqdagi ta'mirlashlar orasidagi muddatini maksimal darajada oshirish.

Yer tubidagi ta'mirlashlarning turlarini mukammalroq o'rganib chiqamiz.

Quduqlarni joriy ta'mirlash quduq tubi va usti jihozlari ishlashini tiklash va quduqlarni ishlatish rejimini o'zgartirish ishlari, shuningdek, quduq jihozlarini, quduq devorini va quduq tubini turli cho'kmalar (parafin, gidratli tinqinlar, tuzlar, korroziya mahsulotlari)dan tozalash bo'yicha ishlar majmuasi amalga oshiriladi. Quduqlarda ta'mirlash

ishlarini o‘tkazish qoidalarida joriy ta’mirlashga quyidagi ishlar kiritilgan

Quduqni joriy ta’mirlash turlari

Quduqlarni joriy ta’mirlash ishlari:

1. *Quduqni ishlatishga tushirishda (burg‘ilashdan, o‘zlashtirishda, harakatsiz, konservatsiya) quduq jihozlari bilan jihozlash*

1.1. Favvorali quduqni ishga tushirish

1.2. Gazliftli quduqni ishga tushirish

1.3. Shtangali chuqurlik nasoslari bilan jihozlangan quduqni ishga tushirish

1.4. Markazdan qochma elektr nasoslari bilan jihozlangan quduqni ishga tushirish

2. *Quduqni ishlatishning boshqa usuliga o‘tkazish*

2.1. Favvoralidan – gazliftga

2.2. Favvoralidan – shtangali chuqurlik nasosi usuliga

2.3. Favvoralidan – markazdan qochma elektr nasoslariga

2.4. Gazliftdan – shtangali chuqurlik nasosi usuliga

2.5. Gazliftdan – markazdan qochma elektr nasoslariga

2.6. Shtangali chuqurlik nasosi usulidan – markazdan qochma elektr nasoslariga

2.7. Markazdan qochma elektr nasoslariga – shtangali chuqurlik nasosi usuliga

2.8. O‘tkazishning boshqa turlari

3. *Ishlatish rejimini optimallashtirish*

3.1. Podveska chuqurligini o‘zgartirish, SHGNning o‘lchamlarini o‘zgartirish

3.2. Podveska chuqurligini o‘zgartirish, ETSNning o‘lchamlarini o‘zgartirish

4. *SHGN bilan jihozlangan quduqlarni ta’mirlash*

4.1. Reviziya va nasosni almashtirish

4.2. Shtanga uzilishini bartaraf etish

4.3. Silliq shtokni almashtirish

4.4. Germetik bo‘limgan nasos kompressor quvurini (NKQ) almashtirish, bartaraf etish va opressovka

4.5. NKQni tozalash va bug‘lantirish

4.6. Quduq usti jihozini almashtirish, reviziya qilish

5. Markazdan qochma elektr nasoslari bilan jihozlangan quduqlarni ta'mirlash

- 5.1. Nasosni reviziya qilish va almashtirish
 - 5.2. Elektr dvigatelni almashtirish
 - 5.3. Zararlangan kabelni bartaraf etish
 - 5.4. Germetik bo'limgan NKQni reviziya qilish, almashtirish, bartaraf etish
 - 5.5. NKQni tozalash va bug'lantirish
 - 5.6. Quduq usti jihozini reviziya qilish, almashtirish
- 6. Favvorali quduqlarni ta'mirlash*
- 6.1. Germetik bo'limgan NKQni reviziya qilish, almashtirish, opressoovka va bartaraf etish
 - 6.2. NKQni tozalash va bug'lantirish
 - 6.3. Quduq usti jihozlarini reviziya qilish, almashtirish
- 7. Gazlift quduqlarini ta'mirlash*
- 7.1. Germetik bo'limgan NKQni reviziya qilish, almashtirish, opressoovka va bartaraf etish
 - 7.2. NKQni tozalash va bug'lantirish
 - 7.3. Gazlift klapanlarini reviziya qilish, almashtirish, tozalash
 - 7.4. Quduq usti jihozlarini reviziya qilish, almashtirish
- 8. Artezian va yutuvchi quduq jihozlarini reviziya qilish va almashtirish*
- 9. Quduq tubini tozalash, yuvish*
- 9.1. Sirt faol moddalar (SFM) qo'shilgan issiq neft (suv) bilan yuvish
 - 9.2. Kimyoviy reagentlar bilan quduq tubini qayta tozalash
- 10. Yangi turdag'i yer osti jihozlarini sinash bo'yicha malakali ishlari*
- 11. Boshqa turdag'i ishlari*

Yuqorida keltirilgan ishlari quduqni joriy ta'mirlash brigadasi yordamida amalga oshiriladi, lekin kon amaliyotida ular quduqni yer ostida ta'mirlash brigadasi deb ataladi, bu noto'g'ri, chunki quduqni yer ostida ta'mirlashga joriy ta'mirlashdan tashqari, kapital ta'mirlash ham kiradi, ya'ni bu tushuncha ancha keng qamrovlidir. Quduqlarni joriy ta'mirlash brigadasi ko'p vaqt talab qilmaydigan ba'zi bir halokatlarni (masalan, NKQni olib chiqish) bartaraf etish bilan shug'ullanadi.

Quduqlarni kapital ta'mirlash deb mustahkamlovchi quvurning ishga yaroqliliginini tiklash, sement halqa, quduq tubi zonasi, murakkab

halokatlarni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar majmuasiga aytildi.

Kapital ta’mirlashga quyida keltirilgan ishlar kiradi. Bu ishlar quduqlarni kapital ta’mirlash brigadalari tomonidan bajariladi.

Quduqlarni kapital ta’mirlash turlari

Quduqlarni kapital ta’mirlash ishlari:

1. Ta’mirlash-himoyalash ishlari

1.1. Qatlamning suvlangan alohida oraliqlarini cheklash

1.2. Alohida qatlamlarni cheklash

1.3. Sement halqasining germetik bo‘lmagan qismlarini to‘g‘rilash

1.4. Ishlatish, oraliq kolonna va konduktor ortidagi sement halqani to‘ldirish

2. Ishlatish kolonnasining germetik bo‘lmagan qismlarini bartaraflash

2.1. Germetik bo‘lmagan qismlarni tamponlash yo‘li orqali bartaraflash

2.2. Germetik bo‘lmagan qismlarni plastir o‘rnatish orqali bartaraflash

2.3. Germetik bo‘lmagan qismlarni qo‘sishimcha diametri kichik bo‘lgan mustahkamlovchi quvurni tushirib bartaraf qilish

3. Ishlatish yoki ta’mirlash jarayoni yo‘l qo‘yilgan halokatlarni bartaraflash

3.1. Ishlatish jarayonida yo‘l qo‘yilgan halokatdan so‘ng quduqdan jihozlarni olib chiqish

3.2. Ishlatish kolonnsasi bilan halokatni likvidatsiya qilish

3.3. Quduq tubi va o‘qini metall jismlardan tozalash

3.4. Quduqlarni ishlatishda yo‘l qo‘yilgan halokatlarni likvidatsiya qilish bo‘yicha boshqa ishlar

3.5. Quduqlarni ta’mirlash jarayonida yo‘l qo‘yilgan halokatlarni likvidatsiya qilish

4. Boshqa gorizontlarga o‘tish va qatlamlarni bir-biridan ajratish

4.1. Boshqa gorizontlarga o‘tish

4.2. Qatlamlarni bir-biridan ajratish

5. Paker-otsekatel turidagi qurilmalarni yo‘lga qo‘yish va ta’mirlash

6. Burg‘ilash bilan bog‘liq bo‘lgan yer osti ishlari majmuasi

6.1. Quduqning yangi o‘qlarini burg‘ilash

6.2. Sement stakannni burg‘ilash

6.3. Tog‘ jinsida quduq o‘qini chuqurlashtirish bilan kolonna boshmog‘ini frezerlanadi

6.4. Shurf va artezian quduqlarini burg‘ilash va jihozlash

7. *Quduq tubi zonasini qayta ishlash*

7.1. Quduq tubiga kislotali ishlov berish

7.2. Qatlamni gidravlik yorishni o‘tkazish

7.3. Qum-suvli perforatsiyani o‘tkazish

7.4. Quduq tubi zonasiga vibratsiya bilan ta’sir etish

7.5. Quduq tubi zonasiga issiqlik bilan ta’sir etish

7.6. Erituvchilar bilan quduq tubi zonasini yuvish

7.7. Sirt faol moddalar bilan quduq tubi zonasini yuvish

7.8. Termogazkimyoviy usullar bilan ishlov berish

7.9. Quduq tubi zonasiga ishlov berishning boshqa turlari

7.10. Haydovchi quduqlarning qabul qilish profilini to‘g‘rilash

7.11. Avval otilgan oraliqlarni qo‘sishimcha perforatsiyalash va torpedalash

8. *Quduqlarni tekshirish*

8.1. To‘yinganlik va mahsuldor qatlamning ishlanganlik xarakterini tekshirish, quduq geologik kesimini aniqlash

8.2. Quduqning texnik holatini baholash (quduqni tekshirish)

9. *Quduqni boshqa turga o‘tkazib ishlatish*

9.1. Quduqni haydash qudug‘i sifatida o‘zlashtirish

9.2. Quduqni texnik suv olishga o‘tkazish

9.3. Quduqlarni nazorat, pyezometrik quduqlarga o‘tkazish

9.4. Quduqni issiqlik yoki havo haydovchi quduqqa o‘tkazish

10. *Haydovchi quduqlarni ishlatish va ta’mirlash*

10.1. Bug‘ va havo haydovchi quduqlarni qumga qarshi jihozlar bilan jihozlash

10.2. Bug‘ va havo haydovchi quduqlardagi qum tiqinlarini yuvish

11. *Quduqlarni konservatsiya qilish va undan chiqarish*

12. *Boshqa turdag'i ishlar*

Quduqlarni joriy va kapital ta’mirlash tushunchalaridan tashqari **qatamlarning neft bera oluvchanligini oshirish bo‘yicha quduq jarayonlari**, shuningdek, quduqlarda ta’mirlash ishlariga aloqador bo‘lgan tushunchalar kiritilgan. Qatlamning neft bera-oluvchanligini oshiruvchi quduqdagi ta’mirlash ishlari jarayoniga uyumning belgilangan qismida qoldiq neftni olish koeffitsientini oshirishga yo‘naltirilgan fizik, kimyoviy

yoki biokimyoviy jarayonlarni amalga oshiruvchi agentlarni yuborish kabi ishlar majmuasi kiradi.

Ushbu ishlar bilan, qoida bo'yicha, quduqni kapital ta'mirlash brigadalari yoki boshqa qatlamning neft beruvchanligini oshirish boshqarmasi va quduqlarni kapital ta'mirlash tarkibiga kiruvchi maxsus brigadalar bajaradilar.

Bu mavzuni o'rganishda ta'mirdan oldin quduqni tekshirish, uning ishlamaslik yoki yomon ishlash sababini aniqlash va ta'mir turini belgilash ishlariga ahamiyat bering.

Shuningdek kapital ta'mirda ishlatiladigan moslama va uskunalar, ularning texnik imkoniyatlari va ishlatilish sharoitlarini ham o'rganing.

Kapital ta'mir ishlarini bajarishida hayot faoliyati xavsizligi qoidalariga qattiq rioya qilish zarur.

Tekshirish uchun savollar

1. Quduqni ishlatish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
2. Yer osti ta'mirida qaysi ishlar bajaridadi?
3. Ko'tarish-tushirish ishlarida qanday moslamalar ishlatidadi?
4. Nasos shtangalari va quvurlarini ko'tarish va tushirishda qaysi asboblar ishlatiladi?
5. Qum tiqinini tozalashning qaysi usullarini bilasiz?
6. Past bosimli qatlamlarni qum tiqinidan tozalash xususiyatlari nimadan iborat?
7. Qum tiqinini to'g'ri va teskari yuvishning qulaylik va kamchiliklarini aytib bering.
8. Qum tiqinini yuvishda qanday suyuqliklar ishlatidadi?
9. Yer osti ta'mirini bajarishda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari.
10. Qaysi ishlar kapital ta'mir turiga kiritiladi?
11. Ta'mirda qanday asboblar ishlatiladi?
12. Quduqqa harakat qiladigan begona suv qanday cheklanadi?

14. Konlarda neftni yig'ish va tayyorlash

Hozirgi vaqtida neft konlarida mahsulotni yig'ish va tayyorlash bosimli germetiklangan tizimlarni qo'llash bilan amalga oshirilmoqda, ularning asosiy belgisi bo'lib, oluvchi quduqlar, avtomatlashtirilgan guruhiy o'lhash qurilmalari, siquvchi nasos stansiyalari yoki nasos so'rg'ichli separatsiya qurilmalari, shuningdek, neft, gaz va suvning markaziy yig'ish

va tayyorlash punktlari hisoblanadi. Tizim elementlari quvur o'tkazgichlar orqali o'zaro bog'langan: oluvchi quduqlardan gazsimon suyuq aralashmalar yig'ish punktiga diametri 73–114 mm bo'lgan liniyalar orqali beriladi, mahsulotning keyingi uzatilishi katta diametrli kollektorlar orqali o'tadi.

Yig'ish va tayyorlash sxemasi kon maydoni, quduq debiti, haydalayotgan suyuqlikning fizik-kimyoviy xususiyatlari, joy relyefi va tabiiy sharoitlarga bog'liq. Bir holatda mahsulot suvlangan va suvsiz bo'linsa, boshqa holatda esa u umumiy kollektor orqali o'tadi. Ba'zi konlarda nasos stansiyalariga mahsulot bir necha kollektorlaridan kelib tushadi, boshqalarida esa har qaysi yog'ish punktiga birinchi daraja separatori o'rnatilgan va suyuqlik siqvchi nasoslar orqali yoki liniyadagi bosim ta'sirida uzatiladi. Maydoni bo'yicha unchalik katta bo'limgan konlarda yig'ish va tashish punktlari bir maydonda joylashishi mumkin.

Barcha konlardagi tizim elementlarining ishlash printsiplari bir xil: AGZUda fazalar bo'linmaydi.

Separatsianing birinchi bosqichi siqib berish nasos stansiyalarida amalga oshiriladi, natijada gaz alohida kollektor bo'ylab ajralib chiqadi. Bundan tashqari, ajratib olingan suv haydovchi yoki yutiluvchi quduqlarga haydaladi.

Separatsianing ikkinchi bosqichi yig'ish punklarida amalga oshiriladi.

Barcha yig'ish tizimlari uchun neftni yig'ishning texnologik jarayonlari o'xshash: separatsiya yoki fazalarni bo'lish; mahsulotni deemulsiya qilish; neft stabilizatsiyasi. Oxirgi jarayon, odatda, deemulsiya va tuzsizlashtirish bilan birga parallel ravishda olib boriladi.

Fizik jarayonlardan kelib chiqib neftni tayyorlashda, tizim uchun jihozlarni blok sifatida tayyorlashadi; isitish va cho'ktirish jarayonlari joylashtirilgan deemulsiya va tuzsizlashtirish qurilmalari o'rniga hozirda isitkichlar va cho'ktirkichlar chiqarilmoqda. Isitgich va cho'ktirgichlarni umumlashtirib, turli o'tkazgich xususiyatiga va ishlashiga ega bo'lgan ushbu kon sharoitlari uchun neft tayyorlashning ratsional jarayonlari topilmoqda.

Yig'ish tizimining asosiy jihozlari: chiqarish chiziqlari va kollektorlar; avtomatlashtirilgan guruhiy o'lhash qurilmalari; yo'lakay isitkichlar; siqvchi nasos stansiyalar.

Kon kommunikatsiyalari uchun issiqlikka chidamli choksiz quvurli quvur o'tkazgichlar qo'llaniladi.

Konda qo‘llaniladigan quvur o‘tkazgichlarning tasnifi quyidagicha:

- *haydaladigan mahsulot turi bo‘yicha* – neft, gaz, neft-gaz, suv va bug‘ o‘tkazuvchi hamda kanalizatsiya quvurlari;
- *qo‘llanilishi bo‘yicha* – o‘z oqimi orqali, bosimli va aralash;
- *ishchi bosim bo‘yicha* – past (0,6 MPa gacha), o‘rtacha (1,6 MPa gacha) va yuqori (1,6 MPa dan yuqori) bosimli;
- quvur yotqizilishi *usuli bo‘yicha* – yer tagi, yer usti va suv usti;
- *funktsiyasi bo‘yicha* – chiqaradigan (quduq ustidan guruh qurilmalarigacha), yig‘uvchi kollektorlar (bir nechta quvur o‘tkazgichlardan mahsulot qabul qiladi) va mahsulotli (tayyor mahsulotni uzatadi);
- *tayyorlanish usuli bo‘yicha* – yig‘uvchi;
- *joylashish shakli bo‘yicha* – chiziqli (yig‘uvchi kollektor bir chiziqdan iborat), halqasimon (yig‘uvchi kollektor yopiq halqasimon liniyani tashkil qiladi) va yoysimon (yig‘uvchi kollektor bir punktga yoysimon orqali birikadi).

Konlarda diametri 75 dan 350 mm gacha bo‘lgan quvur o‘tkazgichlar keng tarqalgan.

Ba’zi uzellarni montaj qilishda flanetsli birikmalar qo‘llaniladi.

Quvur o‘tkazgich armaturasi uch guruhga bo‘linadi: berkitish, boshqariluvchi, saqlagich.

Berkitish armaturasi – quvur o‘tkazgichlarini umumlashtiradi va quvur o‘tkazgichlardan turli texnologik qurilmalarni ajratadi. U har qaysi quvur o‘tkazgich boshi va oxiriga, shuningdek, ularni bir-biridan ajratish joylarida va yig‘ish kollektorlarida o‘rnataladi. Berkitish armaturasiga so‘rgichlar kranlar, ventil, qaytma klapanlari kiradi.

Kran – boshqaruv qurilmasi bo‘lib, tiqinni o‘zining o‘qi bo‘ylab aylantirilganda uning o‘tish yuzasi ochib-yopiladi.

Ventil – berkituvchi qurilma bo‘lib, shpindel aylantirilganda klapan (unga o‘rnatilgan) o‘q bo‘ylab qo‘zg‘aladi. Guruh qurilmasiga yoki yig‘uvchi kollektorga o‘rnatilgan quvur o‘tkazgichga qaytma klapanlar o‘rnataladi va ular suyuqlik harakati yo‘nalishi o‘zgarganda quvur o‘tkazgichni o‘chirishga mo‘ljallangan.

Quvur o‘tkazgichlarning **boshqariluvchi (bosimni boshqaruvchi) armaturasi** – quvur o‘tkazgichda boshqaruvchigacha yoki undan keyingi qatlam bosimini ushlab turish uchun xizmat qiladi. Ular qoida bo‘yicha gaz o‘tkazgichlarda kompressorning qabul qilish joyi yoki gaz o‘tkazgichlarning chiqish nuqtalarida doimiy bosimni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Saqlagich armaturasi – quvur o‘tkazgichlarni yoki apparatlarni bosim oshganda darz ketishdan saqlashga mo‘ljallangan. Saqlash armaturasiga turli konstruktsiyadagi (richagli, prujinali va b.) saqlagich klapanlari kiradi.

Neft konlari maydonlaridan yo‘l gaz o‘tkazuvchi quvurlar orqali amalga oshiriladi. Kompressorning qabul qilish stansiyalariga kelib tushuvchi gaz harakatlanuvchi gaz quvurlari **keltiruvchi**, kompressorga yuboriladigan – **haydovchi** deb ataladi. Turli quvur o‘tkazgichlar bo‘ylab kelib tushadigan gazning gaz o‘tkazgichlari yig‘uvchi kollektorlar deb ataladi. Gaz yig‘uvchi kollektoring konfiguratsiyasi separatsiya qiluvchi qurilmalar soni, ularning konda va neft hamda gaz yig‘ish va tashish tizimlarining joylashishiga bog‘liq. Kollektor tejamkor bo‘lishi, gazning uzluksiz berilishini ta’minlashi, shuningdek, tez bosh-qariladigan va xizmat ko‘rsatishda qulay bo‘lishi kerak.

Quvur bo‘ylab suyuqlik yoki gazning sarfi differentsiyal manometrlar yordamida aniqlanadi.

Blokli avtomatlashtirilgan guruhiy o‘lchash qurilmalari quyidagilarga xizmat qiladi:

- neft va gaz yig‘ish tizimi bir quvurdan iborat bo‘lganda quduq debitini avtomatik tarzda o‘lchash;
- suyuqlik berilishi miqdori bo‘yicha quduq ishini nazorat qilish uchun;
- halokatli holatlar sodir bo‘lganda avtomat tarzda yoki dispetcher boshqaruven punktidan quduq bloklashtiriladi yoki butunlay to‘xtatiladi.

Neft konlarida blokli yig‘ish punktining «Sputnik» turi keng qo‘llaniladi.

Harorat tushishi bilan neftda erigan parafin kristallana boshlaydi. Bunda neft qovushqoqligi birdan oshib ketadi, ayniqsa, qisqa vaqtli haydash to‘xtatilgandan so‘ng u birdan ortib ketadi. Shuning uchun bunday neftlarni haydashda nasos stansiyalarining quvvatini oshirish, neftni isituvchi maxsus qurilmalar qurilishi, quvur o‘tkazgichlarning diametrini oshirish, neftga turli prisadkalar qo‘shilishi, uni neft mahsulotlari bilan eritish va h.k. zaruratlar tug‘iladi.

Gazsizlashtirilmagan neftni tashishda parafin hosil bo‘lish va cho‘kish holatlari kamayadi.

Ishlatish amaliyoti neft va gaz umumiyligi holda parafinni bartaraf etishning asosiy yo‘li orqali yig‘ilganda issiqlik yo‘qotilishi minimumga tushadi hamda quduq mahsulotini qazib chiqarish va tashishda optimal haroratni saqlab turishga erishiladi. Bunga quvurning yotish chuqurligi,

uning issiqlik o‘tkazuvchanligi, haydash rejimi va mahsulotni isitish omillari ta’sir ko‘rsatadi.

Quduq mahsulotini yo‘lakay isitish elementlari quyidagicha. Chiqarish liniyalarida mahsulot quduq usti isitkichlari (PP turidagi) va quvur o‘tkazgich (PT turidagi) isitkichlari yordamida isitiladi.

Blokli gaz o‘chog‘i UN-0,2 va **neftni isituvchi PTT-0,2** gazda ishlaydi. Isitkichning suyuqlik bo‘yicha o‘tkazuvchanlik qobiliyati 70^0S gacha isitilganda 100 t/kun, ishchi bosim – 1,6 MPa gacha, gaz sarfi – 25 m³/soat ni tashkil qiladi.

Yo‘lakay isitkich PP-0,4, PP-0,63 va PP-1,6 larning suyuqlik bo‘yicha o‘tkazuvchanlik qobiliyati u 250^0S gacha isitilganda mos ravishda 750, 1150 va 2350 t/kun, gaz sarfi 45, 75 va 180 m³/soat ni tashkil qiladi.

Quvur o‘tkazgichli PT-160/100 isitichlarining suyuqlik bo‘yicha o‘tkazuvchanlik qobiliyati u 70^0S gacha isitilganda 500 m³/kun, gaz sarfi – 300 m³/soatni tashkil etadi.

Siquvchi nasos stansiyalari neftdan gazni ajratishning birinchi bosqichini amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, keyinchalik neftni alohida markazdan qochma nasoslar orqali, gazni esa separatsiya bosimi ostida tashish maqsadida amalga oshiriladi.

Siquvchi nasos stansiyalari ikki turni blok ko‘rinishida qo‘llashga mo‘ljallab chiqariladi.

Birinchi turga blokli nasos (BN) nasosli haydovchi separatsiya qurilmasi bazasi asosida DNSga kiradi. Bloklarning 12 xildagi o‘lchamlari ishlab chiqilgan: BN-500-9 dan BN-2000-26 gacha.

Blok shifri: BN-500-9 blokli nasosli; birinchi son – nasosning suyuqlik bo‘yicha berishi, m³/kun; ikkinchisi – bosim haydash, MPa. Bloklardan turli berish va bosimli siquvchi nasos stansiyalari komponovka qilinadi.

Stansiya texnologik g‘ov, bloklar kanalizatsiyasi va gazning halokatli otish shamchalaridan tashkil topgan. Texnologik blok texnologik hajm va gidrotsiklonlardan iborat bo‘lib, ularning biri rezerv hisoblanadi.

Ikkinci turga DNS-7000, DNS-14000, DNS-20000 lar kiradi, bunda sonlar nasos agregatlarning berish sonini ko‘rsatadi, m³/kun. Nasoslarning bosim haydashi 1,9–2,8 MPa. Texnologik birlik bufer hajmi bloki (gaz separatsiyasi amalga oshiriladi) va nasos bloki 8ND-9x3 dan tashkil topgan. Keltirilgan DNSlarda mos ravishda ikki, uch, to‘rt texnologik birliklar mavjud bo‘lib, ularning har bir stansiyasida bitta rezerv texnologik birlik bor.

Bundan tashqari, DNS quyidagilardan tashkil topgan: neft oqizig‘ini yig‘uvchi va haydovchi bloklar, past voltli apparaturalar hamda KIPVaA, shuningdek, taqsimlash qurilmasi va gazning halokatli otish shamchalari.

Tekshirish uchun savollar

1. Neft va gazni yig‘ish tizimlarining tasnifi.
2. Neft yig‘ish tizimi qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Individual va guruhli tizmlarning farqi nimada?
4. Neft va gazni alohida va birgalikda olinishining qulayligi va kamchiligi nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Akramov B.Sh., Buranov M.D., Jumaev X.N., Meyliev A.M. «Neft va gaz ishi asoslari» fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2002. 19 b.
2. Akramov B.Sh., Sidiqxo‘jayev R.K. «Neft va gaz ishi asoslari» Darslik. – Toshkent. 2003. 203 b.
3. Akramov B.Sh., Hayitov O.G‘ «Neft va gaz quduqlarini ishlatish» Darslik. – Toshkent, Ilm-ziyo, 2004.
4. Акрамов Б.Ш., Джураева Г.Р., Боймуродов С.Н. Методические указания по выполнению практических занятий по курсу «Основы нефтегазового дела». – Ташкент, 2005.

Mundarija

Kirish.....	3
1. Neft konlarini ishlash texnologiyalari.....	4
2. Neft konini ishlash loyihasini tuzish uchun boshlang‘ich ma’lumotlarni tayyorlash.....	9
3. Neft konlarini ishlash loyihasini tuzishning gidrodinamik asoslari.....	12
4. Gaz do‘ppisi va chekka suvlar bosimi sharoitida neft konlarning ishlash xususiyatlari.....	14
5. Qatlamning neft berish qobiliyatini oshirish usullari.....	15
6. Neft konlarini ishlashning tahlili, uni nazorat etish va jarayonni boshqarish.....	19
7. Neft qatlamini ochish va quduqni ishga tushirish.....	26
8. Quduq tubiga ta’sir etish xususiyatlari.....	27
9. Gaz-suyuqlik ko‘targichining nazariy asoslari.....	29
10. Quduqlarni favvora usulida ishlatish.....	31
11. Quduqlarni gazlift yoki kompressor usulida ishlatish.....	35
12. Quduqdarni chuqurlik nasoslari yordamida ishlatish.....	39
13. Quduqlarni ishlatishda uchraydigan asoratlarga qarshi kurashish. Yer osti va kapital ta’mir turlari.....	41
14. Konlarda neftni yig‘ish va tayyorlash.....	46
Adabiyotlar.....	52

Muharrir: Sidiqova K. A.